

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UO'K: 33+37+90

Musayev Azizbek Baxriddinovichning

O'zbekistonning Xitoy va Hindiston bilan aloqalari
5A 120301 - «O'zbekiston tarixi» mutaxassisligi bo'yicha
magistr akademik darajasini olish uchun taqdim
etilgan

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar - tarix fanlari nomzodi
S.T.Mirsoatova

Farg'ona-2017

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3-14
I BOB. O'ZBEKISTON-XITOY O'RTASIDAGI SIYOSIY-IQTISODIY ALOQALAR.....	15-34
1.1. O'zbekiston-XXR o'rtasida diplomatik va siyosiy aloqalarning yo'lga qo'yilishi.....	15-24
1.2. Ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik aloqalari va istiqbollari.....	25-34
II BOB. O'ZBEKISTON-HINDISTON O'RTASIDA SIYOSIY-IQTISODIY ALOQALAR.....	35-52
2.1 O'zbekiston Respublikasining Hindiston tomonidan e'tirof etilishi va uning huquqiy asoslari.....	35-44
2.2 Ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik aloqalari va istiqbollari.....	45-52
III BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XITOY VA HINDISTON BILAN MADANIY-MA'RIFIY, ILM-FAN, TURIZM VA BOSHQA SOHALARDA HAMKORLIGI.....	53-71
3.1 O'zbekiston Respublikasining Xitoy bilan madaniy-ma'rifiy, ilm-fan, turizm va boshqa sohalarda hamkorligi.....	53-59
3.2 O'zbekiston Respublikasining Xitoy va Hindiston bilan madaniy-ma'rifiy, ilm-fan, turizm va boshqa sohalarda hamkorligi.....	60-71
XULOSA.....	72-76
FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	77-79

KIRISH

Mavzuning dolzarblii. O‘zbekiston Respublikasi siyosiy mustaqilligining e’lon qilganligi o‘zbek xalqi va davlatchiligining ko‘p asrlik tarixida muhim voqeа bo‘ldi. Aynan mustaqillik tufayli O‘zbekiston tarixida yangi sahifa ochildi. Milliy mustaqillik mantiqiy ravishda O‘zbekistonda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma’rifiy sohalarda tub islohotlar amalga oshirilishini kun tartibiga qo‘ydi.

“Biz – deb ta’kidlaydi O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov, o‘z taqdirimizni o‘z qo‘limizga olib azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasining hisobga olgan holda, mana shunday oliyjanob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, bu yo‘lda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olgan bunday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik bergenini bugun hammamiz chuqr anglaymiz”¹.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab suveren davlat sifatida mamlakat ichki hayotiga oid masalalar bilan bir qatorda, tashqi siyosat borasida hamkorlik faoliyat olib borishga kirishdi.

O‘zbekiston hukumati mamlakatimiz tashqi siyosiy faoliyatiga e’tibor qaratar ekan, birinchi navbatda uning xalqaro huquq normalariga mos keladigan mustahkam huquqiy bazasini yaratgan va shunga mos ravishda o‘zining bu boradagi strategiyasi, tamoyillari va ustuvor yo‘nalishlarini belgilab oldi. Shu asosda O‘zbekiston Respublikasi qisqa muddat ichida zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimining shakllanish jarayoniga to‘la huquqli a’zo sifatida qo‘shildi va jahon hamjamiatining teng huquqli subyektga ega bo‘ldi.

Mamlakat tashqi siyosiy faoliyati strategiyasidan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyati bilan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama hamkorlik o‘rnatish hamda rivojlantirilishining faol tarafdori bo‘lib qolmoqda. Bu nafaqat davlatlar o‘rtasida teng huquqli asosidagi munosabatlarning shakllanishiga, balki xalqlar o‘rtasida do‘stlik va o‘zaro ishonchning

¹ Каримов И.А. Юксак манавият енгилмас куч. – Тошкент. Манавият, 2008. Б. 3.

mustahkamlanishiga ham hissasini qo'shmoqda. Shu sabablarga ko'ra nisbatan yosh bo'lgan mustaqil O'zbekiston davlati tashqi siyosiy faoliyatining ilmiy nuqtai nazarda o'rghanishi bugungi dolzarb masalalardan biridir. Aynan bu g'oya mamlakatimiz birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan, respublikadagi yetuk tarixchi olimlar bilan 1998-yil iyun oyida bo'lib o'tgan uchrashuv chog'ida ilgari surilgan edi. Tashqi siyosiy faoliyat uzlusiz davom etadigan jarayon bo'lib, davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning holatiga qarab, dinamik ravishda o'sib yoki pasayib borishi mumkin. Mazkur xolatdan O'zbekiston ham mustasno emas, ya'ni respublikamiz tashqi siyosati doimiy ravishda o'zgarib turuvchi jarayondir. Shuning uchun bu mavzu yillat o'tgan sari dolzarblik kasb etaveradi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan aloqalardir. Dissertatsiyada biz shu yo'nalishda mamlakatimiz diplomatiyasining Xitoy va Hindiston aloqalariga to'xtalib o'tdik. Chunki bu mamlakatlar bilan O'zbekistonning aloqalari uzoq va boy tarixiy asosga ega. Bu aloqalar O'zbekiston mustaqilikka erishgandan so'ng, zamonaviy ruh kasb etib dinamik ravishda rivojlanib bormoqda. Janubiy-sharqiy Osiyoda jadal sur'atlarda rivojlanayotgan mamlakatlar Xitoy va Hindiston Respublikasi, ulkan iqtisodiy imkoniyatlarga egadirlar. Bu ikki mamlakat o'z tashqi siyosat yo'lida tinchlik va xavfsizlik manfaatlarini himoya qilib, dunyo hamjamiyati mamlakatlari bilan o'zaro foydali va teng huquqli munosabatlar o'rnatmoqda. Xitoy va Hindiston Respublikalarining tashqi siyosatidagi bunday yondashuvlar O'zbekiston Respublikasining xalqaro munosabatlarga bo'lган qarashlariga to'liq mos kelishi ushbu davlatlar bilan o'zaro manfaatli aloqalarining rivojlanishiga asos bo'lmoqda.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasining Janubiy-sharqiy Osiyo mintaqasida joylashgan barcha mamlakatlar, jumladan, Xitoy va Hindiston bilan yo'lga qo'yilgan ko'p qirrali munosabatlar bugunga qadar alohida tadqiqot obyekti sifatida o'z ifodasini topgani yo'q. Shuning uchun, O'zbekistonning Xitoy va Hindiston davlatlari bilan aloqalarini ilmiy asosda tahlil etilishi tarix fanining

xalqaro munosabatlar yo‘nalishidagi bo‘shliqlikni to‘ldirishga xizmat qiladi. Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligi aynan shu bilan ham bog‘liqdir.

Tadqiqotning davriy chegarasi. 1991-2015-yillarni qamrab oladi. Bu mustaqil O‘zbekistonning tashkil topishi va rivojlanishining davridir. Bu yillarda mamlakatning o‘z taraqqiyot yo‘lini ishlab chiqish, tashqi siyosiy strategiyasi va tamoyillarining belgilab olishi, xalqaro maydonda o‘zining mustahkam o‘rniga ega bo‘lishi bilan ajralib turadi. Aynan shu davrda O‘zbekiston dunyo hamjamiyati bilan teng huquqli va o‘zaro manfaatli aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirishga muvaffaq bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi, Xitoy va Hindiston bilan aloqalarda o‘zining yangi rivojlanish pallasiga kirdi va bu faoliyat dinamik ravishda rivojlanib bormoqda.

Mavzuning o‘rganilish darajasi. O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati, xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyekt sifatida uning jahon hamjamiyatiga kirishi, xorijiy mamlakat va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik masalalariga oid ko‘plab manbalar tahlil qilindi. Ular 4 guruhgaga bo‘lib o‘rganildi:

- Huquqiy hujjatlar, bitimlar, shartnomalar va hokazolar;
- O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi davrida e’lon qilingan adabiyotlar, ilmiy maqola, OAV materiallari va tadqiqotlar;
- Sobiq Ittifoq davrida chop etilgan adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlar;
- MDH mamlakatlari tadqiqotchilari va xorijiy mualliflar tomonidan nashr etilgan tadqiqotlar.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1996-yil 26-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilingan edi (7 moddadon iborat). Mazkur Qonun O‘zbekistonning tashqi siyosat borasidagi asosiy tamoyil va strategik yo‘nalishlarini belgilab berardi. Qonuning 1-moddasi quyidagicha bayon qilingan: O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati va xalqaro faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalari va prinsiplariga, “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risida”gi Qonunga, “Mudofaa to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga, O‘zbekiston

Respublikasining Harbiy doktrinasiga, boshqa qonunlarga, BMT va EXHTning prinsiplari va maqsadlariga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи tomonidan ratifikatsiya qilingan O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari va bitimlaridan kelib chiqadigan majburiyatlarga asoslanadi².

O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 10-sentyabrdagi O‘RQ-330-sonli “O‘zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qonuni³ qabul qilinishi bilan yuqoridagi qonun o‘z kuchini yo‘qotdi. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosati mazkur qonun asosida amalga oshiriladi. Dissertatsiya mavzusida tashqi siyosat masalasining huquqiy asoslarini yoritishda mazkur konsepsiya asos qilib olindi. Bundan tashqari, O‘zbekistonning Xitoy va Hindiston bilan aloqalaridagi huquqiy hujjatlardan tegishli joylarda foydalanildi.

Ilmiy adabiyotlarning ikkinchi guruhiga O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyingi davrda e’lon qilingan monografiya, ilmiy maqola va tadqiqotlar kiritildi. Bu adabiyotlarning o‘ziga xos jihatni shundaki, mavjud muammolarni yoritishda eski aqidalarga emas, balki milliy mustaqillik mafkurasiga tayangan holda sifat jihatdan mutlaqo yangi konceptual-metodologik tamoyillar asosida yondashilgan. Ular o‘z asarlarida O‘zbekiston Respublikasi tashqi faoliyati asoslarining shakllanishi va xalqaro maydonga chiqishi, xorijiy davlatlar bilan har tomonlama aloqalari, shuningdek dunyo hamjamiyati bilan integratsiyalashuvi kabi masalalarni ilmiy tahlil qilganlar.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatiga bag‘ishlangan dastlabki tadqiqotlar sifatida A.Qosimov, L.Petrov va I.Vaskin⁴ kabi mualliflarning ishlarini qayd etish joiz. Bu mualliflar O‘zbekistonning jahon hamjamiyati teng huquqli subyekti sifatida o‘z tashqi siyosiy faoliyatini shakllantirishi hamda rivojlanishini yoritib berishga harakat qilganlar. A.Qosimov va I.Vaskinlar o‘z asarlarini, mamlakatimiz tashqi siyosatining asosiy tamoyillari va yo‘nalishlarini

² www.lex.uz.

³ O‘sha joyda.

⁴ Касымов А. Петова Л. Внешняя политика Узбекистана в света концепции ненасилия. – Ташкент. 1992. Касимов А. Васькин И. Основные направления внешней политики Республики Узбекистан. –Ташкент, Узбекистан, 1994.

bayon etganlar, mamlakatimizning xorijiy davlatlar bilan olib borayotgan tashqi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalaridagi asosiy xususiyatlarni ochib berishga bag‘ishlaganlar.

Ayrim mualliflar o‘z asarlarida global iqtisodiy aloqalar rivojlanishidagi asosiy tendensiyalar va ularning O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga ta’sirini ilmiy jihatdan yoritganlar. Shuningdek, O‘zbekistonning yirik xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga a’zo bo‘lish tarixiga ham e’tibor qaratilgan⁵. Xusan, A.Alimov, A.Akilov, A.Bedrinsov, S.X.Ziyadullayev, A.Rasulov, Z.Boboxo‘jayev va boshqalar milliy tashqi-iqtisodiy doktrinamizning vazifalari va ustuvor yo‘nalishlarini tavsiflab, uning hayotga tadbiq etilishi va kelajakdagи istiqbollarini ko‘rsatib o‘tganlar. M.X.Rahmonqulov va Z.S.Ubaydullayev respublika tashqi iqtisodiy faoliyatini huquqiy yo‘naltirish tizimini shakllantirishdagi tajribani umumlashtirganlar. S.Solixov O‘zbekistonning jahon bozorlarga chiqishi muammolarini yoritishga harakat qilgan. S.Usmonov bozor munosabatlariga o‘tishning milliy modelini hayotga tadbiq etishda xalqaro iqtisodiy hamkorlikning rolini ko‘rsatib o‘tgan. I.G.Tursunmuhammedov o‘z asarida qo‘shma korxonalarining tashkil etilishi, ularni rivojlantirishda uchrayotgan obyektiv va subyektiv qiyinchiliklarni tahlil etishga bag‘ishlangan⁶.

O‘zbekiston tashqi siyosiy faoliyatidagi tajribaning ortib borishi, jahon hamjamiyati bilan integrasiyalashuvi jarayoni respublika xalqaro aloqalarini yanada chuqurroq ilmiy tahlil qilish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Shu ma’noda, O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati va xalqaro munosabatlar bo‘yicha

⁵ Алимов А. Внешнеэкономическая деятельность Республики Узбекистан взгляд в будущее. – Ташкент. Узбекистан, 1992.; О‘sha muallif. Оценка итогов и хода экономических реформ во внешнеэкономической деятельности за 1995//Экономика и статистика. – Ташкент. 1996 № 3-4. С. 34-43; О‘sha muallif. Ўзбекистонда ташқи савдо//Иқтисод ва ҳисобот. – Тошкент. 1997. №7. Б. 42-44.; Зиядуллаев С.К. Прогнозирование экономического развития Узбекистана в условиях перехода к рыночной экономике. – Ташкент. Узбекистан, 1993.; Расулов А., Бедринцев А., Акилов А. Узбекистан внешнеэкономическая деятельность и интеграции в мировой хозяйство. – Ташкент. Узбекистан, 1996.; Расулов А. Экспортная стратегия национальной экономики. – Ташкент. Фан, 1996. Бобоходжаев З. Суверенный Узбекистан. Вопросы внутренней и внешнеэкономической политики. – Ташкент. 2005.

⁶Рахмонкулов М.Х., Убайдуллаев З.С. Формирование системы правового регулирования внешнеэкономической деятельности Узбекистана// Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент. 1994. № 9-10. С. 3-7.; Салихов С.С. Выйти из внешней рынок // Экономика и статистика. – Ташкент. 1995. № 5-6. С. 10-19.; Турсунмухаммедов И.Г. Совместные предприятия и проблемы их развития// Общественные науки в Узбекистане. Ташкент. 1993. №. 11-12. С. 22-26.; Усмонов С. Практическое осуществление собственной модели перехода к рыночным отношениям в Узбекистане // Экономика и статистика. – Ташкент. 1997. № 7-8.

tadqiqot olib borayotgan E.Z.Nuriddinovning ilmiy maqolalari⁷ alohida e'tiborga loyiq.

Ushbu mavzuni ochib berishda A.K.Qirg'izboyevning asarlari⁸ alohida ahamiyat kasb etadi. Ular O'zbekiston Respublikasining Osiyo qita'sidagi, xususan, XXR va Hindiston Respublikasi bilan aloqalari va ularning rivojlanishiga bag'ishlangan. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasining Osiyo mamlakatlari bilan xalqaro hamkorligi" nomli monografiyasida muallif xalqlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning tarixiy ildizlarini, mustaqil O'zbekistonning Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy va madaniy aloqalarning hozirgi holati hamda istiqbollarini bartafsil yoritib beradi.

Mavzuni yoritishda R. Asadovning tadqiqoti muhim manba sifatida xizmat qildi⁹. Shuningdek, A. G'ofurovning "Hindiston" deb nomlangan asarida ushbu davlatning O'zbekiston Respublikasi bilan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy aloqalarining qadimdan hozirgi kunimizga qadar bo'lgan davri batafsil yoritib berilgan¹⁰. A.Asqarov, A.Xo'jayev, O'.M.Mavlonov, E.Z.Nuriddinov, A.K. Qirg'izboyev¹¹ asarlarida o'zbek-xitoy aloqalarining qadimiyligi xususidagi fikrlar asoslab berilgan. Xususan, A.Xo'jayevning asarida ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalar tarixi qadimiyligi xitoy manbalari va tadqiqotlar asosida o'rganilib, chuqur tahlil qilingan hamda hamkorlikning bugungi darajasi va asosiy xususiyatlarga xolis baho berilgan. Shuningdek, bu asarda O'zbekiston tashqi siyosatining shakllanishi, uning muhim tamoyillari, tashqi siyosatning huquqiy asoslari va asosiy yo'nalishlari kabi masalalar o'z aksini topgan. Xitoy Xalq Respublikasi

⁷ Нуриддинов Э.З. Ўзбекистон Республикасининг ташки иқтисодий фаолияти асослари ва устувор йўналишлари//Ўзбекистон тарихи. 2000. № 4. O'sha muallif. Международное сотрудничество Республики Узбекистан со странами Европы. –Ташкент. Чулпон, 2002.; O'sha muallif. Становление и приоритетные направления внешней политики Республики Узбекистан //Ўзбекистон тарихи. № 4. Б. 3-11.

⁸ Қирғизбоев А. К. Ўзбекистон ва жаҳон. – Тошкент. 1997.; O'sha muallif. Ўзбекистон Республикасининг Осиё мamlakatlari bilan xalqaro hamkorligi. – Тошкент. Фан, 2004.

⁹ Асадов Р.Б. Сотрудничество между Узбекистаном и Индией в области экономики и культуры исторические основы и современное состояние (1991-2001гг.). Автореф. дис.канд.ист. наук. – Ташкент. 2007.

¹⁰ Гофуров А. Ҳиндистон. Ижтимоий-иктисодий, маданий, тарихий ва географик жиҳатлари. – Тошкент. Молия, 2010.

¹¹ Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenizi va etnik tarixi. –Toshkent. Universitet, 2007.; Xodjayev A. Buyuk Ipak yo'li: munosabatlar va taqdirlar. – Toshkent. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007.b; Mavlonov O'.M. Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari: shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. –Toshkent. Akademiya, 2008.; Nuriddinov E.Z. O'zbekiston Respublikasining Yevropa mamlakatlari bilan xalqaro hamkorligi. –Toshkent. Cho'pon, 2002.; Qirg'izboyev A.K. O'zbekiston Respublikasining Osiyo mamlakatlari bilan xalqaro hamkorligi. – Toshkent. Fan, 2004.

Markaziy Osiyodagi tashqi siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari, hamkorlikni samarali rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi omillar, Markaziy Osiyo masalasidagi Rossiya-Xitoy va Xitoy-AQSH munosabatlari muammolari o‘rganilgan. Shuningdek, mustaqillik yillarda chop etilgan bir qator maqolalarda O‘zbekiston bilan Xitoy o‘rtasidagi siyosi, iqtisodiy hamda madaniy sohalardagi hamkorlikning ayrim jihatlari o‘z aksini topgan. Jumladan, O‘.Mavlonov va D.Mahkamova, AXudoyqulov va N.Nurullayev, A.Isajonov, Van Shuylin, A.Razzoqov, I.Bekturatov, A.Tulyaganov, O.Limanov¹² maqolalarida ikki mamlakat o‘rtasidagi qadimiy aloqalar, o‘zaro tajriba almashuv, hamkorlikni yanada yuksaltirishga qaratilgan ayrim fikr-mulohazalar o‘z aksini topgan.

Mustaqillik yillarda yaratilgan ushbu asarlar, ilmiy tadqiqotlardan biz dissertatsiya mavzusini yoritishda asosiy manbalar sifatida foydalandik. Olingan ma’lumotlar qayta tahlil qilinib, o‘z fikr-mulohazalarimiz bilan to‘ldirildi.

Ilmiy adabiyotlarning uchinchi guruhiga sobiq Ittifoq davrida chop etilgan adabiyotlarni kiritish mumkin. Ammo, u asarlar kommunistik mafkura ta’sirida yoritilgan bo‘lsada, ba’zi manbalardan tanqidiy foydalanish mumkin. Ulardan L.V.Mitroxin, P.A.Barannikov, V.L.Kornev, O.V.Malyarovlarning asarlarini misol keltirish mumkin¹³. Ushbu asarlarda O‘zbekiston Respublikasining sobiq Ittifoq davridagi cheklangan madaniy, ilmiy aloqalari haqida ma’lumotlarni uchratish mumkin. Biz bu asarlardan mustaqillik yillariga qadar O‘zbekistoning qanday tor doirada aloqalar olib borilganligini bilib olamiz.

Ilmiy adabiyotlarning to‘rtinchchi guruhiga MDH va xorijiy mamlakatlar tadqiqotchilarining ilmiy ishlari kiradi. Ularda xalqaro munosabatlarda ro‘y

¹² Mavlonov O‘., Mahkamova D. O‘zbekiston va Xitoy qadimiy aloqalari // Jamiyat va boshqaruv. Toshkent. 2003. № 4. B. 67-68.; Xudoyqulov A., Nurullayev N. O‘zbekiston – Xitoy hamkorlikning yangi bosqichi/Iilm sarchashmalari. Urganch, 2006. № 2. B. 20-22.; Isajonov A. Davlat va tashqi iqtisodiy faoliyat // Bozor, pul va kredit. Toshkent. 1999. № 3. B. 49-51.; Van Shuylin. Xitoy islohotlar yo‘lida // Bozor, pul va kredit. Toshkent. 1999. № 3. B. 45-47.; Razzoqov A. Xitoya transmilliy korporatsiyalar taraqqiyot lokomotivlaridir // Bozor, pul va kredit. Toshkent. 1999. № 3. B. 47-48.; Bekmurotov I. O‘zbekiston Xitoy manfaatlar mushtarakligi // Jamiyat va boshqaruv. Toshkent. 2004. № 4. B. 65-66.; To‘laganov A. O‘zbekiston Respublikasi zamonaviy xalqaro munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlari//Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. Toshkent. 2007. № 2. B. 27-35.; Limanov O. Xitoyning Markaziy Osiyodagi strategiyasi //Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. Toshkent. 1999. № 3-4. B. 16-21.

¹³ Митрохин. Л.В. Индия: вступая в век XXI. Политиздат, 1987.; Баранников П.А. Бхарат-Индия. – Линград. Наука, 1977.; Корнеев В.Л. Индия: 80-е годы. – Москва. Мысль, 1986. Маляров О.В. Государство в частный сектор экономики Индии. – Москва. Наука, 1984.

berayotgan o‘zgarishlar, ya’ni jahon tartibotining shakllanishi, davlatlararo munosabatlar rivojining yo‘nalishlari va ularning muayyan davlatning ichki ahvoli hamda taraqqiyotiga ko‘rsatadigan ta’siri kabi masalalar bo‘yicha e’tiborga molik ilmiy mulohazalar uchraydi.

Rossiyalik olimlar qalamiga mansub ko‘plab ilmiy adabiyotlar orasida Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasidagi davlatlar, xususan, Hindiston Respublikasi muammolari, xalqaro jarayonlarda ularning mustaqil ishtroki masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar diqqatni tortadi. Rossiya FA Sharqshunoslik institutining bir guruh olimlari tomonidan tayyorlangan maxsus monografiya¹⁴ bu borada katta qiziqish uyg‘otadi. Asarda Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlarining o‘z mustaqil taraqqiyot yo‘llarini tanlab olishlari, mintaqadagi har bir davlat tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlari ochib berilgan. S.Jukov, O.Reznikova, O.P.Vinogradovalarning¹⁵ ilmiy maqolalari ham diqqatga sazovordir.

Xorijlik mualliflar tadqiqotlarida biz mavzuning globallashuv jarayonlari, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlik masalalariga bag‘ishlangan taqdimotlarga e’tibor qaratdik. Bunday adabiyotlar orasida jahon tartiboti konsepsiyasining metodologik asoslarni ishlab chiqqan Z.Bjezinskiy, S.Xantington geosiyosat, geoijtisodiyot va xalqaro munosabatlar masalalarini ilmiy jihatdan asoslab, mukammal o‘rganishgan¹⁶.

Mavzuni yoritishda Xitoy va Hindiston davlatlarining tarixi, iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda erishgan yutuqlari, ikki respublikasining xalqaro maydonda olib borayotgan siyosatiga doir adabiyotlar keng o‘rganilgan. Shunday qilib barcha ma’lumotlarni jamlab, xalqaro munosabatlarda O‘zbekiston bilan Xitoy va Hindiston davlatlari o‘rtasidagi jarayonlar, globallashuv sharoitida

¹⁴ Центральная Азия по пути в мировое сообщество. – Москва. Инс. Востоковедение. 1995. С. 178.

¹⁵ Жуков С., Резникова О. Центральная Азия в мировой политике и экономике // Москва. 1994.; Виноградова Л. Экономическая интеграция в СНГ и опыт третьего мира // Мировая экономика и международные отношения. 1995. № 9.

¹⁶ Қаранг: Бжезинский З. Вне контроля. Глобальный беспорядок накануне ХХI века // США. ЭПИ. 1994. С. 121.; Samuel P. Huntington. The Clash of Civilization ??// Foreign Affairs-Summer. 1993.

shakllanayotgan yangi tartibot va mazkur davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar haqida umumiy tasavvur hosil bo‘ladi.

Ilmiy adabiyotlarning tahlili shundan dalolat beradiki, tashqi siyosat va xalqaro hamkorlik masalalarga oid muammolar nafaqat xorijlik, balki o‘zbekistonlik tarixchi va siyosatshunoslarning ham e’tiborini tortmoqda.

Muammoni o‘rganish va tahlil qilish natijasida quyidagi xulosaga kelindi:

- Birinchidan, mustaqillik yillarda O‘zbekiston tarixi fanida mamlakatimizning tashqi siyosati va xalqaro hamkorligi masalalarini o‘rganuvchi yangi ilmiy-tadqiqot yo‘nalishi shakllandı.
- Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatidagi har bir davlat bilan ko‘p tomonlama hamkorligi masalalarini ilmiy o‘rganish jarayonlari kuchaydi.
- O‘zbekiston Respublikasi bilan Xitoy va Hindiston o‘rtasidagi xalqaro hamkorlikni yoritib berishga qaratilgan ushbu mavzu tarix fanidagi eng yangi davr muammolarini qisman bo‘lsa-da, to‘ldirishga xizmat qiladi, degan fikrdamiz.

Tadqiqot mavzusining maqsad va vazifalari. Ushbu mavzuning magistrlik dissertatsiyasi sifatida tanlab olinishidan maqsad tarixiy dalillarga tayangan holda O‘zbekiston Respublikasi va Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy sohalarda hamkorlikni Xitoy, Hindiston Respublikalari misolida ilmiy jihatdan obyektiv va holisona yoritishdan iborat. Shundan kelib chiqib, dissertatsiya quyidagi vazifalar bajarilishini maqsad qilib oldik:

- O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosati asosiy prinsip va tamoyillari;
- Markaziy va Janubiy-sharqiy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatidagi muhim yo‘nalishlardan biri ekanligini asoslab berish;
- O‘zbekiston Respublikasining Xitoy va Hindiston Respublikalari bilan munosabatlarida vujudga kelgan huquqiy tahlil qilish;

- O‘zbekiston Respublikasining Xitoy va Hindiston Respublikalari bilan o‘zaro manfaatli iqtisodiy hamkorligining rivojlanish dinamikasini ko‘rsatib berish;
- Xalq diplomatiyasining davlatlararo munosabatlarini mustahkamlashda muhim omil ekanligini asoslab berish;
- O‘zbekiston Respublikasining Xitoy va Hindiston bilan qadimiy siyosiy, ijtimoiy, madaniy-ma’rifiy hamkorlikning asosga ega ekanligini asoslab berish;
- O‘zbekiston Respublikasining Xitoy va Hindiston bilan madaniy-ma’rifiy sohalardagi o‘zaro manfaatli aloqalarni tahlil qilish;
- O‘zbekiston Respublikasining Xitoy va Hindiston bilan o‘zaro manfaatli hamkorligini tahlil qilish asosida tegishli xulosalar chiqarish va istiqbollardagi aloqalarni yanada jadallashtirishga qaratilgan tavsiyalar berish.

Mavzuning ochib berishda manbaviy asoslari. Mavzuni ochib berilishida qo‘yilgan maqsadga erishish va belgilangan vazifalarni hal etish jarayonida turli manbalarga murojaat qilindi. Ko‘p sonli huquqiy hujjatlar baholi qudrat tahlil qilinib, ilmiy muomilaga kiritildi. Tadqiqotning manbaviy asosini huquqiy hujjatlar, tarixiy asarlar bilan bирgalikda davriy matbuot va internet saytlaridan olingan so‘nggi ma’lumotlar tashkil qildi.

O‘zbekistonning XXR va Hindiston o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik, mamlakatimizga ushbu davlatlar investisiyalarining kirib kelishi, qo‘shma korxonalar tashkil etish to‘g‘risidagi ma’lumotlar, davriy matbuot materiallari va internet saytida mavjud bo‘lgan qimmatli manbalar tashkil etadi.

Mazkur mavzuni yoritishda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi va turli byulletenlar, davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro Prezidentlar, hukumat boshliqlari va boshqalarning tashriflari haqidagi faktik ma’lumotlar, hukumat qarorlaridan o‘z o‘rnida foydalanildi.

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining tadqiqot obyekti. O‘zbekiston Respublikasining XXR va Hindiston bilan teng huquqli hamkorlik aloqalarini ilmiy jihatdan tahlil qilish tadqiqotning obyekti sifatida belgilab olindi.

Dissertatsiya mavzusining yoritishda nazariy va uslubiy asoslar. Mavzuni yoritish jarayonida dissertant tomonidan tarixiylik obyektivlikka tayanildi. Asosiy e’tibor davlatlararo aloqalar dinamikasiga qaratildi. Tadqiqot jarayonida mavzuga milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy istiqlol mafkurasidan kelib chiqqan holda yondashildi.

Tadqiqotning nazariy asosini O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov asarlari, ma’ruza va nutqlarida ilgari surilgan tashqi siyosat borasidagi fikr-mulohazalari tashkil etadi. Shuningdek, davlat va hukumat qarorlari, ilmiy-nazariy, ma’naviy–mafkuraviy ahamiyatga molik fikr-g‘oyalar, metodologik va konseptual ko‘rsatmalarga amal qilindi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Ishda O‘zbekiston Respublikasining XXR va Hindiston davlatlari o‘rtasida o‘zaro manfaatli hamkorlikning o‘rnatalishi va rivojlanish jarayonlari kompleks ilmiy tahlil qilingan.

Shuningdek, mavzuning ilmiy yangiligi quyidagilarda ham o‘z aksini topgan:

- O‘zbekiston Respublikasining o‘z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan va milliy istiqlol mafkurasiga tayangan holda xalqaro munosabatlarining yangi tizimini shakllantirish jarayonlarida bevosita ishtirok etishi Xitoy va Hindiston bilan aloqalar misolida yangi dalillar asosida yoritilgan.
- O‘zbekistonning XXR va Hindiston davlatlari bilan har tomonlama hamkorlik aloqalarining ilmiy jihatdan yoritishi mamlakatimiz tarixshunosligidagi xalqaro munosabatlarga bag‘ishlangan yo‘nalishning qisman bo‘lsada yangi tadqiqot bilan boyitilishiga asos bo‘ladi;
- O‘zbekiston, XXR va Hindiston davlatlarining tashqi siyosatida jahonda ro‘y berayotgan jarayonlarga bo‘lgan qarashlaridagi o‘xshash tomonlari ko‘rsatiladi;

- O‘zbekistonning XXR va Hindiston Respublikasi bilan siyosiy-iqtisodiy va madaniy-ma’rifiy sohalardagi hamkorlik jarayonini o‘rganish va tahlil qilish, mamlakatlar taraqqiyotiga qo‘shayotgan samarali natijalar bilan bir qatorda, o‘zaro aloqalardagi mavjud ayrim muammolarni aniqlash va uni bartaraf etish yuzasidan takliflar kiritishga imkon yaratadi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. O‘zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyati, alohida mintaqalar, davlatlar hamkorligi masalalarini ilmiy asosda o‘rganish muhim jihatlardan biridir. Tadqiqotda ilgari surilgan asosiy fikr-mulohazalar, nazariy va amaliy xulosalar ham jahon hamjamiyati bilan yanaga integratsiyalashuviga oid istiqbolli dasturlarni ishlab chiqishga respublikaning tashqi siyosiy va iqtisodiy faoliyatini olib boruvchi davlat muassasalariga nazariy va amaliy qo‘llanma bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot jarayonida to‘plangan va nazariy jihatdan umumlashtirilgan ma’lumotlardan O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati va xalqaro hamkorligi masalalariga oid o‘quv-uslubiy ko‘rsatma tayyorlashda, shuningdek bakalavriat va magistratura yo‘nalishlariga “O‘zbekiston tarixi”, “Jahon tarixi” fanlaridan ma’ruzalarda, maxsus kurslar o‘qitilishida qo‘shimcha manba sifatida foydalanish mumkin.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Magistrlik dissertatsiyasi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I BOB. O'ZBEKISTON-XITOY O'RTASIDAGI SIYOSIY-IQTISODIY ALOQALAR

1.1. O'zbekiston-Xitoy o'rtasida diplomatik va siyosiy aloqalarning yo'lga qo'yilishi

O'zbekiston hududi Buyuk Ipak yo'lining chorrahasida joylashganligi tufayli ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar bir necha ming yillik tarixga ega. Xitoy elchisi Chjan Syanning milodddan avvalgi 128-yili Farg'ona vodiysiga kelish sanasini ikki davlat o'rtasidagi diplomatik aloqalarning o'rnatilishi, deb hisoblashimiz mumkin. O'sha vaqtidan buyon O'zbekiston-Xitoy munosabatlari goh keng qamrovli, goh esa susayib borgan (bu jarayon O'zbekiston mustaqillikka erishgungacha davom etgan).

1949-yil 1-oktabrda Xitoy Xalq Respublikasi tuzilganligi e'lon qilindi va XXR to'la mustaqil davlatga aylandi¹⁷. Xitoy Sharqiy va Markaziy Osiyoda joylashgan. XXRning umumiy maydoni – 9,6 mln km² ni tashkil etib, hududining kattaligi jihatidan Rossiya va Kanadadan so'ng jahonda 3-o'rinda turadi. Poytaxti Pekin shahri. Ma'muriy jihatdan 23 provinsiyaga, 5 ta muxtor o'lka va markazga bo'ysunuvchi 4 shahar (Pekin, Shanxay, Tyanszin, Chunsin) ga bo'linadi¹⁸.

Xitoy tarixchilari, sayyoohlarining asarlaridan o'sha davrdagi mamlakatimiz hududi, hukmdorlarning ichki va tashqi siyosati, mahalliy aholining turmushi, shahar-davlat nomlari va chegaralari haqida qimmatli ma'lumotlarni olishimiz mumkin.

XX asrning oxiriga kelganda Xitoy iqtisodiy rivojlanish jihatidan dunyo mamlakatlari ichida o'ziga xos o'ringa ega bo'ldi. Nafaqat aholisi soni jihatidan, balki iqtisodiy siyosiy-ijtimoiy, ilm-fan, madaniy-ma'rifiy sohalarda ham Xitoyda yuqori natijaga erishdi. 1997-yili Xitoyda asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha chuqur taassurot qoldiruvchi natijalarni qo'lga kiritdi. 1998-yilgi holatga ko'ra Xitoy dunyodagi iqtisodiy yirik mamlakatlar ro'yxatida 7-o'rinni egalladi¹⁹.

¹⁷ Китайская Народная Республика. Москва. Наука, 1989. С. 5.

¹⁸ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T. 9. 2005. B. 427-438.

¹⁹ Халқ сўзи, 2004 йил 18 июнь.

Xitoy Xalq Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi bilan mustaqillik arafasidayoq aloqalarni yo‘lga qo‘ygan. Bunga misol tariqasida, 1987-yili O‘zbekistonga Xitoyning birinchi rasmiy delegatsiyasi tashrif buyurdi. 1990-yil noyabrda Sinszyan-Uyg‘ur muxtor xududi raisi Temur Davomat Toshkentga keldi. 1991-yil iyunda ilk bor O‘zbekistonning rasmiy delegatsiyasi Urumchida bo‘ldi. Shu davrdan ikki davlat o‘rtasida savdo va turistik aloqalar jonlandi. Xitoy O‘zbekiston respublikasi mustaqilligini 1991-yil 27-dekabrda tan olgan. 1992-yil 2-yanvarda diplomatik munosabatlar o‘rnatilgan. 1992-yil 15-oktabrda Toshkentda XXR elchixonasi, 1995-yil 6-mayda Pekinda O‘zbekiston elchixonasi ochildi²⁰.

Ikki tomonlama hamkorlik munosabatlarning barcha jabhalarini qamrab olgan bo‘lib, do‘stona va o‘zaro manfaatdorlik ruhida olib borilmoqda. Ikki davlat rahbarlari o‘rtasida o‘rnatilgan o‘zaro ishonchli aloqalar hamkorlikning asosini tashkil etadi. O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni olib borishda tomonlarning terrorizm, ekstremizm, separatizm, narkotrafik, noqonuniy qurol savdosи va xavfsizlikning boshqa tahdidlari bo‘yicha qarashlarning mushtarakligi va yaqinligi muhim o‘rin egallaydi.

Doimiy tarzda ikki davlat rahbarlarining tashriflari va uchrashuvlari o‘tkazilib kelinmoqda. 1992, 1994, 1999, 2005, 2011, 2012, 2014 va 2015-yillari O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov Xitoy davlatiga tashrif qilgan. Bundan tashqari, birinchi Prezidentimiz 2001-yil va 2006-yillarda Shanxay shahriga hamda 2012-yil Pekin shahriga ShHT sammitlarida ishtirok etish uchun, shuningdek, 2008-yil Pekin shahriga 29-yozgi Olimpiyada o‘yinlari ochilish marosimida ishtirok etgan. 2002-yilda Oliy Majlis Raisining o‘ribbosari Boris Bugrov, 2003-yilda bosh vazir O‘tkir Sultonov, 2004-yilda Tashqi ishlar vaziri Sodiq Safoyev , 2004-yilda E.G‘aniyevlar Xitoya tashrif buyurishgan. Javob tashrifi sifatida 1994-yil davlat kengashi raisi Li Pen, 1995-yil rais o‘ribbosari Xu Szintao, 1996-yil rais Szyan Szemin, 1999-yili davlat kengashi raisi o‘ribbosari Syan Sichen, 2001-yilda davlat kengashi raisi o‘ribbosari Li Lansin, 2002-yilda davlat kengashining a’zosi I.Aymat, 2003-yilda Tashqi ishlar vaziri Li Chjaosin,

²⁰ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т. 9. 2005. Б. 427-438.

2003-2004-yillarda Ijtimoiy xavfsizlik vazirining o‘rribbosari Yan Xuanninlar mamlakatimizga tashrif buyurishdi²¹.

1994-yili 18–20-aprelda O‘zbekiston birinchi Prezidenti I.Karimov taklifiga ko‘ra, XXR bosh davlat rahbari Li Pen O‘zbekistonga rasmiy tashrif buyurdi. Bu mamlakatimizga dastlabki tashrif bo‘ldi. Tashrif mahsulot xarakterida Xitoyning O‘zbekistonga kredit kiritish haqida, fuqarolik havo transporti haqidagi kelishuvlar O‘zbekiston tashqi aloqalar vazirligi va Xitoy xalqlari savdoni rivojlantirish yordam komiteti o‘rtasidagi hamkorliklar imzolandi²². Safarning ikkinchi kuni jahon mumtoz adabiyoti namoyandasini, buyuk o‘zbek shoiri Mir Alisher Navoiy xotirasini yod etish bilan boshlandi. XXR Davlat Kengashi rahbari Li Pen I.Karimov hamrohligida buyuk bobokalonimiz poyiga gulchambar qo‘ydi. O‘zbekiston bilan Xitoy o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlik istiqboli muhokama qilindi²³.

O‘zbekiston bilan Xitoy davlatlari o‘rtasida kredit, xalqaro iqtisodiy hamkorlik hamda ikki mamlakat o‘rtasida havo transporti aloqalarini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha hukumatlararo bitimlar imzolandi. Bu yerga kelgan Xitoy rahbarida Il-76 TD hamda IL-114 samoloyotlari katta qiziqish uyg‘otdi. Bu yerda tayyorlangan samolyotlar bugungi kunda Xitoy havo yo‘llarida muvaffaqiyatli parvoz qilmoqda. O‘sha paytda bunday samolyotlarni yana xarid qilish uchun tegishli hujjatlar tayyorlandi.

1994-yil 24–26-oktabr kuni XXR raisi Szyan Szemin taklifiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov Xitoyga davlat tashrifi uyushtirdi²⁴. XXRning raisi Szyan Szemin va XXR davlat rahbari Li Pen I.Karimov bilan muzokaralar olib bordi. Ikki davlat o‘zaro aloqalarning asosiy prinsiplari, o‘zaro foydali hamkorlikni rivojlantirish va mustahkamlash hamda konsullik kelishuvi xaqida hujjatga imzo chekdilar.

²¹ Давлатлар ва халқаро ташкилотлар. Тошкент. Академия, 2005. Б. 277-278.

²² Халқ сўзи, 1994 йил 18-20 апрель сонлари.

²³ Халқ сўзи, 1994 йил 18 апрель.

²⁴ Халқ сўзи, 1999 йил 10-13 июль сонлари.

1996-yil 2–3-iyul kunlari I.Karimov taklifiga ko‘ra, XXR raisi Szyan Szemin O‘zbekistonga davlat tashrifini amalga oshirdi. Tomonlar temir yo‘l transporti sohasida hamkorlik qilish, 2 barobar soliq saqlanishi haqidagi kelishuvga imzo chekdilar. Xitoyning O‘zbekistonga beminnat yordam berish xaqidagi bitimlari almashuvi bo‘lib o‘tdi. Oradan 3 yil o‘tib, 1999-yil 10-13-iyul kunlari O‘zbekiston hukumati taklifiga binoan XXR raisi Szyan Szemin O‘zbekistonga 2-marta rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi. I.Karimov va Szyan Szemin o‘rtasida muzokalar bo‘lib o‘tdi. Szyan Szemin O‘zbekiston parlament spikeri Erkin Xalilov va O‘zbekiston bosh vaziri O‘tkir Sultonov bilan ham uchrashdi.

1999-yil 8–10-noyabr kuni XXR raisi Szyan Szemin taklifiga binoan O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov Xitoyga davlat tashrifi uyshtirdi²⁵. XXR raisi, butun Xitoy xalq tashkilotchilari yig‘ilishi doimiy komitet raisi Li Pen va bosh davlat maslahatchisi Iju Junsu I.Karimov bilan uchrashdilar. Tomonlar ikki davlat hamkorlik va do‘stlik munosabatlarining kelajakdagi rivoji haqidagi kelishuvar, hamkorlik haqidagi hujjatlarni imzoladilar. Aloqa sohasida hamkorlik va mualliflik huquqlari himoyasi, Xitoy tomonidan O‘zbekistonga imtiyozli kreditlarni olib kirish haqidagi cheklangan kelishuv, Xitoy jamiyat xavfsizligi vazirligi va O‘zbekiston Ichki ishlar vazirligi o‘rtasidagi hamkorlik haqida kelishuv, sayyohlik va ta’lim sohasida hamkorlik qilish to‘g‘risidagi kelishuvar ham imzolandi.

2004-yil XXR raisi Xu Szintao davlatimizda rasmiy tashrif bilan bo‘ldi. Uchrashuv davomida 10 ta muhim hujjat, jumladan, O‘zbekiston va XXR o‘rtasida sheriklik munosabatlarini, do‘stlik va hamkorlikni yanada rivojlantirish, mustahkamlash to‘g‘risida qo‘shma deklaratsiya, narkotik vositalar, psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishi hamda iste’mol qilinishiga qarshi hamkorlikda kurashish haqida bitimlar imzolandi²⁶. 2005-yil mayda I.Karimov Xitoyga navbatdagi tashrifi oldidan Toshkent xalqaro aeroportida OAV uchun intervyu berdi. Unda yurtboshimiz ikki davlat hamkorligiga to‘xtalib o‘tar ekan, Xitoy

²⁵ Халқ сўзи, 1999 йил 8-9 ноябрь сонлари.

²⁶ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т. 9. 2005. Б. 427-438.

davlatining so‘nggi paytda erishayotgan yutuqlarini yuksak baxoladi. Xitoyga bu galgi tashrifimizdan ko‘zlangan birinchi maqsad Markaziy Osiyoda yuz berayotgan jarayonlar haqida fikr almashish, xavfsizlikni ta’minlash borasida birgalikda ish olib borish bo‘ldi. 2004-yil yakunlariga ko‘ra, ikki tomonlama tovar ayriboshlash hajmi qariyb 70 foiz oshib, 600 million AQSH dollarni tashkil etdi. O‘zbekistonda 83 ta qo‘shma korxona faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularning²⁷ 19 tasi 100 foiz Xitoy sarmoyasi asosida tashkil etilgan²⁷.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimovning taklifiga binoan, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Xu Szintao 2010-yil 9-iyun kuni davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi. Uchrashuv diqqat markazida xalqaro maydondagi siyosiy hamjihatlik, terrorizm, diniy ekstremizm va ayirmachilikka qarshi birgalikda kurashish, o‘zaro manfaatli savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlik hamda madaniy-gumanitar aloqalardan iborat bo‘ldi. O‘zaro siyosiy ishonch va hamjihatlik mustahkamlanib, savdo-iqtisodiy va gumanitar hamkorlik ko‘لامи kengayib bormoqda. Xalqaro maydonda O‘zbekiston va Xitoyning manfaatlariga taalluqli masalalarda mamlakatlarimiz bir-birini qo‘llab-quvvatlab, BMT, ShHT singari xalqaro tuzilmalar doirasidagi aloqalarni kengaytimoqda. Shuningdek, tomonlar mintaqaviy xavfsizlik masalalari bo‘yicha yaqindan hamkorlik qilmoqda. I.Karimov O‘zbekiston Xitoy bilan o‘zaro ishonch, hurmat va manfaatdorlik asosida rivojlanib borayotgan hamkorlikni yuksak qadrlashini ta’kidladi. O‘zbekiston 2005-yilda imzolangan “Do‘stlik, hamkorlik va sheriklik munosabatlari to‘g‘risida” gi davlatlararo shartnoma asosida Xitoy bilan aloqalarni barcha sohalarda rivojlantirish tarafdiridir. Ayniqsa, mamlakatimiz energetika, transport, savdo, telekommunikatsiya kabi sohalarda hamkorlikni yanada kengaytirishdan manfaatdor. Xu Szintao Xitoy O‘zbekistonga vaqt sinovidan o‘tgan ishonchli do‘st va muhim sherik sifatida qarashini qayd etdi. Oliy darajadagi uchrashuvlar chog‘ida erishilgan strategik kelishuvlarni hayotga izchil tadbiq etish borasida o‘z mamlakati O‘zbekiston bilan bundan buyon ham samarali

²⁷ Халқ сўзи, 2005 йил 27 май.

hamkorlikni izchil davom ettirishga tayyorligini ma'lum qildi. Muzokaralar yakunida Islom Karimov va Xu Szintao do'stlik, hamkorlik va sheriklik munosabatlarini har tomonlama rivojlantirish va kengaytirish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiyani imzoladilar. Shuningdek, texnikaviy-iqtisodiy hamkorlik hamda diplomatik pasport egalarining o'zaro vizasiz qatnovi to'g'risidagi hukumatlararo bitimlar, noxomashyo va yuqori texnologiyalar sohalarida hamkorlik bo'yicha hukumatlararo dastur, neft-gaz sohasidagi hamkorlikni kengaytirish to'g'risidagi hukumatlararo memorandum, akkreditatsiya sohasida hamkorlik to'g'risidagi idoralararo bitim, "O'zsanoatqurilishbank" bilan Xitoy Eksimbanki o'rtasida kredit bitimi, tabiiy gaz savdosi to'g'risidagi bitim, energetik material yetkazib berish to'g'risidagi shartnomasi imzolandi²⁸.

2011-yil 19–20-aprel kunlari I.Karimovning Xitoya tashrifi chog'ida tomonlar o'rtasida davlatlararo va idoralararo hamkorlikka doir qator hujjatlar imzolangan. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasida "Investitsiyalarni rag'batlantirish va himoya qilish to'g'risida"gi bitim ikki tomonlama hamkorlikning istiqboldagi rivojlanishi uchun mustahkam asos bo'ldi.

Shuningdek, tomonlar o'rtasida hukumatlararo O'zbekiston-Xitoy hamkorlik qo'mitasini tashkil etish to'g'risida kelishuvga erishildi va uning I yig'ilishi 2011-yilning 26–27-oktabr kunlari Pekin shahrida, II yig'ilishi 2013-yil 30-oktabrda Toshkent shahrida o'tkazildi. Qo'mita doirasida hamkorlikning turli sohalari bo'yicha 7 ta kichik qo'mitalar shakllantirildi²⁹.

2013-yil 8–10-sentabr kunlari XXR raisi Si Szinpinning O'zbekistonga qilgan davlat tashrifi esa ikki tomonlama munosabatlarning rivojidagi tarixiy voqeasi bo'ldi. Tomonlar mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash borasida ham o'zaro faol hamkorlik qilmoqda. Ikkala mamlakatning ko'plab mintaqaviy va xalqaro muammolarni hal etish bo'yicha yondashuvlari bir-biriga o'xshash yoki yaqin ekanligi ta'kidlandi. Masalan, O'zbekiston va Xitoy Afg'oniston

²⁸ www.aza.uz. O'zbekiston-Xitoy: Hamkorlikni yanada rivojlantirish yo'lida.

²⁹ www.mfa.uz. O'zbekiston-Xitoy munosabatlari.

muammosini harbiy yo‘l bilan hal etib bo‘lmasligini, uning siyosiy yechimini topish, BMT shafeligida muzokaralar o‘tkazish va qarama-qarshi kuchlar o‘rtasida murosaga erishish bu boradagi yagona to‘g‘ri yo‘l, deb hisoblaydi.

I.Karimov O‘zbekiston Xitoy bilan o‘zaro ishonch, hurmat va manfaatdorlik asosida jadal rivojlanib borayotgan hamkorlikni yuksak qadrlashini ta’kidladi. Si Szinpin esa, Xitoy O‘zbekistonga vaqt sinovidan o‘tgan ishonchli do‘s, yaqin qo‘shni va strategik hamkor sifatida qarashini ta’kidladi. Mamlakatlar o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilganidan buyon o‘tgan 21 yil mobaynida ikki tomonlama aloqalar izchil sur’atda rivojlanib kelmoqda. Hamkorlikning barcha yo‘nalishlarida ulkan natijalarga erishildi, bir qator yirik qo‘shma investitsiya loyihalari muvaffaqiyatli amalgalari oshirildi.

2013-yil 10-sentabr kuni mamlakat rahbarlari Samaqanddaggi Ulug‘bek rasadxonasi, Registon maydoni va hunarmandchilik namunalari bilan tanishdilar. Si Szinpin ushbu tarixiy joylarni ko‘rganidan xursandchiligin e’tirof etdi. Tomonlar “Do‘slik va hamkorlik to‘g‘risida” gi shartnoma hamda ikki tomonlama strategik hamkorlikni yanada chuqurlashtirish va rivojlantirish haqidagi qo‘shma deklaratsiyani imzoladilar. Si Szinpinning O‘zbekistonga ilk tashrifi chog‘ida jami qiymati 15 milliard AQSh dollariga teng 31 ta hujjat imzolandi³⁰.

2013-yil 28–29-noyabr kunlari O‘zbekistonga uyushtirilgan Xitoy Xalq Respublikasi Davlat kengashi Bosh vaziri Li Ketsyannning rasmiy tashrifi davomida tomonlar o‘rtasida idoralalararo, investitsion va madaniy aloqalarni mustahkamlashga doir 7 ta hujjat imzolandi³¹.

Tashqi siyosiy jarayonlar haqida fikr almashish borasida 2004–2014-yillar oralig‘ida Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasidagi siyosiy maslahatlashuvlarning 12 ta davrasи va ShHT doirasida hamkorlik bo‘yicha qator uchrashuvlar o‘tkazildi. Tashqi ishlar vazirlarining uchrashuvi chog‘ida terrorizm, separatism, diniy ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida, ikki tomonning tashqi siyosiy idoralari o‘rtasida hamkorlik va maslahatlar to‘g‘risida bitimlar imzolandi. O‘zbekiston va

³⁰ www.aza.uz. O‘zbekiston-Xitoy: Strategik hamkorlik yangi ufqlari

³¹ www.mfa.uz. O‘zbekiston-Xitoy munosabatlari

Xitoy tashqi siyosiy jarayonlarda, BMT, ShHT va boshqa xalqaro tashkilotlardagi ishtirokida doimo bir-birlarini qo'llab kelishmoqda. Ayniqsa, ShHT bu borada alohida ahamiyat kasb etadi.

2001-yil 15-iyunda Xitoyning Shanxay shahrida Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Rossiya, Xitoy, Tojikiston va O‘zbekiston davlatlari rahbarlari tomonidan Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) tuzilishi haqida Deklaratsiya imzolandi³². Tashkilotning Toshkent shahrida Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi qarorgohi joylashganligi, mamlakatimizning ushbu tashkilotdagi o‘rni va rolini qanchalik mustahkam ekanligini ko‘rsatmoqda. ShHT Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va barqarorlikni o‘rnatishda, o‘zaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishda ko‘p tomonlama hamkorlikning mexanizmi, ochiq va konstruktiv muloqot uchun maydon, shuningdek, turli yo‘nalishlarda sherikchilikni rivojlantirish instrumenti hisoblanadi. ShHT faoliyati davomida, tashkilotni mustahkamlash borasida katta siyosiy va tashkiliy ishlar amalga oshirildi, uning asosiy maqsad va vazifalarini amalga oshirish borasidagi o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha ko‘p qirrali amaliy qadamlar qo‘yildi.

Shunday qilib, ming yillardan buyon davom etgan o‘zaro do‘stlik aloqalari mustaqillik yillarida yana tiklandi va davom etdi. Bu aloqalar keyingi yillarda ham dinamik ravishda rivojlanib, tobora mustahkamlanib bormoqda.

O‘zbekiston Xitoy Xalq Respublikasi bilan strategik hamkorlikni mustahkamlash, keng savdo-iqtisodiy, investitsion va moliyaviy aloqalarni hamkorlikni kengaytirishda o‘zaro manfaatdorlik hamda teng huquqlilik tamoyillariga asoslangan ikki tomonlama munosabatlarning ustuvor yo‘nalishlari sifatida ko‘radi.

2014-yilning may oyida I.Karimov Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha Kengashning Shanxay shahrida o‘tkazilgan IV sammitidagi ishtiroki davomida Xitoy Xalq Respublikasi raisi Si Szinpin bilan ikki tomonlama uchrashuv o‘tkazdi.

³² Давлатлар ва халқаро ташкилотлар. Тошкент. Академия, 2005. Б. 277-278.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2014-yil 19–20-avgust kunlari XXRga qilgan davlat tashrifi o‘zbek-xitoy munosabatlari rivojining muhim bosqichi bo‘ldi va tashrif doirasida ikki davlat rahbarlari tomonidan 2014–2018-yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasida strategik sheriklik munosabatlarini rivojlantirish Dastur” qabul qilindi. Davlat tashrifi doirasida XXR Davlat kengashi Bosh vaziri Li Ketsyan bilan uchrashdi. Muzokaralar doirasida umumiyligi qiymati 5,2 milliard dollarga teng loyihalar bo‘yicha 20 dan ortiq hujjat, shuningdek 800 million dollar miqdorida savdo shartnomlari imzolandi. Li Ketsyan tashrif natijalarini yuqori baholadi va O‘zbekiston o‘zi tanlagan yo‘ldan sobitqadamlilik bilan davom etib, mustaqil taraqqiyotdan og‘ishmay yuksak natijalarini qo‘lga kiritayotganini qayd etdi³³.

I.Karimovning Xitoyga so‘nggi tashrifi 2015-yil 2–3-sentabrda 2-jahon urushida erishilgan g‘alabaning 70 yilligi munosabati bilan amalga oshirildi. Ikki davlat rahbarlari o‘zaro munosabatlarning bugungi ahvoli, uni yanada rivojlantirish istiqbollarini muhokama qilishdi. I.Karimov Xitoy bilan hamkorlikni yuksak qadrlashini, o‘zaro ishonch va manfaatdorlikka asoslangan aloqalar barcha sohalarda izchil rivojlanib borayotganini ta’kidladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston-Xitoy munosabatlari jadal rivojlanib bormoqda. Bunga ikki davlat rahbarlarining o‘zaro uchrashuvlari va xalqlarimiz o‘rtasidagi ko‘p ming yillik aloqalar ijobiy ta’sir etmoqda. Bugungi kunda jahon hamjamiyatida Xitoy AQSHdan so‘ng iqtisodiy salohiyatda 2-o‘rinni egallab kelmoqda. Ayni paytda Xitoyning Buyuk ipak yo‘lini tashkil etish va uni hayotga tadbiq etishdagi O‘zbekistonning roli va ahamiyatini yuksak qadrlaydi. Xalqaro siyosiy maydonda O‘zbekiston va Xitoy strategik sherik sifatida bir-birini quvvatlaydi. Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O‘zbekiston Respublikasining har tomonlama rivojlanishida, uni jahon hamjamiyatida o‘z o‘rniga ega bo‘lishida, albatta, Xitoy kabi davlatlarni hamkorligi juda muhimdir. Ana shu yo‘lda hozirda

³³ www.mfa.uz. O‘zbekiston-Xitoy munosabatlari.

ikki mamlakat o‘zaro ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalarda aloqalarni keng rivojlantirib kelmoqda.

Tashqi siyosiy jarayonlarda ikki davlat manfaatlari va qiziqishlari deyarli bir xil. O‘zbekiston XXRning hududiy butunligini, undagi separatistik harakatlarni qoralaydi. Xitoyning BMT va ShHTdagi o‘rni va rolini hurmat qiladi. Buyuk ipak yo‘lini qaytadan yo‘lga qo‘yishilishi borasidagi harakatlarini ijobiy baholab uni qo‘llab-quvvatlaydi. XXR esa, O‘zbekistonni Markaziy Osiyodagi eng ishonchli hamkori sifatida mintaqqa xavfsizligida davlatimizning roli va o‘rnini yuqori baholaydi. Mintaqadagi asosiy muammo-Afg‘oniston mojarosi masalasida ham qarashlar mushtarak. Orol muammosi borasida ham hamkorlikda amaliy ishlar qilinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi to‘g‘ridan to‘g‘ri suv yo‘liga ega bo‘limganligi uchun qo‘shni davlatlar bilan avtomobil va temiryo‘l yo‘lagini tiklash va shu orqali dengiz va okeanlarga chiqishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydi. Tashqi siyosiy jarayonlardagi qarashlarning bir xilligi davlatlarimiz o‘rtasidagi iqtisodiy, ma’daviy-ma’rifiy va boshqa sohalardagi hamkorlikka keng yo‘l ochib bermoqda.

1.2. O‘zbekiston – Xitoy o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik va uning istiqbollari

O‘z oldiga dunyodagi rivojlangan davlatlari qatoriga kirishni maqsad qilgan O‘zbekiston jadal sur’atlar bilan rivojlanib kelmoqda. Birinchi prezidentimiz rivojlanishning 5 bosqichini o‘z ichiga olgan “o‘zbek modeli”ni ishlab chiqdi. Ana shu modeldagi “iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi” tamoyili iqtisodiyotimizga alohida urg‘u berilganidan dalolatdir. Keying yillarda ana shu tamoyilga asoslanib O‘zbekiston o‘z milliy iqtisodini shakllantirib kelmoqda. Hozirgi global va integratsiyalashuv jarayonidan O‘zbekiston Respublikasi ham chetda qolgan emas. O‘zining yaqin qo‘snilari, jumladan, Xitoy davlati bilan ham keng qamrovli iqtisodiy hamkorlikni davom ettirib kelmoqda. Xitoy va O‘zbekiston davlatlari ko‘p jihatdan o‘xshashdir. Ikkala davlat ham ichki imkoniyatlarini inobatga olgan holda iqtisodiy islohotlar o‘tkazmoqda. Xitoy XX asrning ikkinchi yarmida sotsialistik rahbarlikka o‘zgartirishlar kiritib, uni bozor iqtisodiga moslashtirgan va katta yutuqlarni qo‘lga kiritgan davlatdir. Hozirgi kunda tomonlar o‘rtasida bir qancha hamkorlik to‘g‘risidagi hujjatlar imzolandi. O‘zbekistonda Xitoy bilan hamkorlikda ko‘plab qo‘shma korxonalar ishga tushirildi. O‘zbekistondagi iqtisodiy islohotlar ijobiyligi amalga oshirilmoqda, ishlab chiqarish ko‘p sohalarda jonlanmoqda, bu amalda O‘zbekiston va Xitoy savdo-iqtisodiy hamkorligini chuqurlashishi tabiiy xoldir.

1992-yilning 2-yanvarida XXR tashqi savdo va iqtisodiy hamkorlik vaziri Li Szinsinning O‘zbekistonga tashrifi ikki mamlakat o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning boshlanishiga sabab bo‘ldi. Shuningdek, ikki mamlakat savdo-iqtisodiy aloqalarining rivojlanishida O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo qo‘shma komissiyaning tuzilishi muhim ahamiyat kasb etdi.

1994-yilda ikki mamlakat o‘rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo komissiya tuzildi³⁴. Uning faoliyati uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Mazkur komissiya 1995-yildan boshlab doimiy ravishda o‘z

³⁴ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т. 9. 2005. Б. 427-438.

yig‘ilishlarini o‘tkazib kelmoqda va ularda savdo-investitsiyaviy faoliyat, qo‘shma korxonalar tuzish, sanoat korxonalarini ilg‘or xorijiy texnologiyalar bilan ta’minlash sohalaridagi hamkorlik shakllari va usullarini yanada takomillashtirish masalalari keng muhokama qilinmoqda. O‘zbekiston bilan Xitoy o‘rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlikni samarali amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi qoshida bir qator yirik Xitoy kompaniyalarining vakolatxonalari akkreditatsiya qilindi. Xunan provinsial eksport-import korporatsiyasi, choy importi va eksporti bo‘yicha Anxoy korporatsiyasi, Shinjon Tashqi iqtisodiy va savdo kompaniyasi, don, yog‘ va oziq-ovqat mahsulotlari importi va eksport qilish Xitoy kompaniyasi, “Teksuna International Limited” kompaniyasi kabilar shular jumlasidandir .

1992-yil martida birinchi prezidentimiz I.Karimovning Xitoya, 1994-yil aprelda XXR Davlat kengashi rahbari Li Penning yurtimizga tashrifi ikki tomon uchun siyosiy soha bilan bir qatorda iqtisodiy sohaga keng yo‘l ochib berdi. 1992–1993-yillarda Xitoy tomoni ajratgan kredit hisobidan respublikamizga minglab tonna guruch, 15000 tonna choy keltirdi. O‘zbekiston esa, Xitoya Il-76 samolyotlarini yetkazib berdi. Ikki mamlakat o‘rtasidagi savdo aylanmasi 1993-yilda 71,9 million AQSH dollarini tashkil etdi³⁵. O‘zbekistondan Xitoy Xalq Respublikasiga umumiyligi qiymati 36,6 mln. AQSH dollari bo‘lgan mahsulotlar eksport qilingan bo‘lsa, Xitoydan O‘zbekistonga keltirilgan import mahsulotlari 35,3 mln AQSH dollariga tashkil etdi. O‘zaro savdo aylanmasidagi ijobjiy saldo 1,3 mln AQSH dollariga teng bo‘ldi³⁶.

1994-yilda 78 ta o‘zbek-xitoy qo‘shma korxonasi faoliyat ko‘rsatdi. Jumladan, Urganch Ipak ishlab chiqarish birlashmasida „Suju” firmasi bilan hamkorlikda velyur, pambarxit kabi materiallar ishlab chiqaradigan korxona qurildi.

1994-yilda ikki mamlakat o‘rtasida tuzilgan savdo iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo komissiya doimiy faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

³⁵ Расмий ташриф давом этмоқда// Халқ сўзи. 1994 йил, 21 апрель.

³⁶ O‘sha joyda.

Shuningdek, ushbu sohalardagi hamkorliklarni jadal rivojlantirishga 2009-yil 14-oktabrda imzolangan “O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi hukumatlari o‘rtasidagi uzoq muddatli strategik tovarlar savdosi haqida”gi bitim va 2010-yil 10-iyunda noxomashyo va yuqori texnologiyalar sohasida ikki davlat hukumatlari o‘rtasidagi hamkorlik dasturi asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

2003-yil ikki tomon tovar ayirboshlash hajmi 216 mln. AQSH dollariga teng bo‘ldi. Shundan O‘zbekistonning XXRga qilgan eksporta 53 mln., importi 163mln. AQSH dollarini tashkil etdi³⁷. Oradan bir yil o‘tib bu ko‘rsatkich 367.1 million miqdorini tashkil etib, uning 101.5 millioni O‘zbekiston eksportiga, 265.6 millioni importiga to‘g‘ri keldi³⁸.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov XXR Raisi Xu Szintaoning taklifiga binoan 2011-yil 19-20-aprel kunlari davlat tashrifi bilan Xitoy Xalq Respublikasida bo‘ldi³⁹. Tashrif dasturiga Prezidenti I.Karimov XXR savdo vaziri Chen Demin hamda Xitoyning yetakchi kompaniya va banklari rahbarlari bilan uchrashdi. Yuqori texnologiyalar sohasidagi loyihalar ijrosining istiqbollari va O‘zbekiston iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlariga Xitoy sarmoyasini jalb etish masalalari atroflicha muhokama qilindi. XXR savdo vaziri va Xitoy ishbilarmon doiralarining yetakchi vakillari tashrif asnosida imzolangan “Sarmoyalarni himoyalash va rag‘batlantirish to‘g‘risida” gi hukumatlararo bitim g‘oyat dolzarb va muhim ahamiyatga ega hujjat ekanini ta’kidladilar. Xitoy Eksimbanki va Davlat banki rahbarlari O‘zbekiston bank tizimi yuksak darajada barqaror va ishonchli ekanini, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida bu yana bir karra o‘z tasdig‘ini topganini qayd etdilar. Xitoyning yetakchi banklari qo‘shma loyihalarni moliyalashtirishga tayyor ekanini bildirib, tashrif doirasida qo‘shma sarmoyaviy loyihalar ijrosi uchun ular tomonidan O‘zbekistonning to‘rt bankiga umumiy qiymati 1,5 milliard AQSh dollariga teng yangi kredit liniyalari ochilganini ma’lum qildi. Shuningdek, Xitoy Xalq banki bilan O‘zbekiston

³⁷ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т. 9. 2005. В. 427-438.

³⁸ Давлатлар ва халқаро ташкилотлар. Тошкент. Академия, 2005. Б. 277-278.

³⁹ Old.presenter.uz. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Islom Karimovning Xitoy Xalq Respublikasiga davlat tashrifi yakunlariga doir.

Markaziy banki o‘rtasida so‘m va yuan ayirboshlash to‘g‘risida bitim imzolandi. Bu sarmoya va savdo sohasidagi hamkorlik imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Xitoy Xalq Respublikasi rahbarlari bilan bo‘lgan muzokaralar ikki tomonlama munosabatlar jadal va izchil rivojlanayotganini hamda ustuvor yonalishlar bo‘yicha hamkorlikning istiqboli porloq ekanini yorqin namoyon etdi.

XXR Raisi Xu Szintao O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovga Xitoy iqtisodiyotining tez o‘sib borayotgan ehtiyojlarini qoplash uchun O‘zbekistondan strategik xomashyo tovarlarni yetkazib berish sezilarli darajada kengaytirilgani uchun minnatdorlikni bildirdi. Buning natijasida ikki tomonlama tovar ayirboshlash hajmi so‘nggi besh yilda to‘rt barobardan ziyodroq oshdi. Bu borada Xitoyga uzoq muddatli va muttasil ravishda paxta tolasi, tabiiy gaz, uran konsentrati, rangli metallar, nodir va kamyob elementlar, mineral o‘g‘itlar kabi strategik tovarlar yetkazib berishni yanada kengaytirish muhimligi ta’kidlandi. Shu munosabat bilan tomonlar “Strategik tovarlar savdosi to‘g‘risida”gi hukumatlararo bitimning amal qilish muddatini 2020-yilgacha uzaytirishga kelishib oldilar. XXR rahbariyati tashrif asnosida “O‘zbekiston-Xitoy” gaz quvurining uchinchi tarmog‘ini barpo etish to‘g‘risidagi bitim imzolangani muhim ahamiyatga ega ekanini ta’kidladi. Shu tariqa quvurning gaz uzatish quvvati yiliga 25 milliard kub metrga yetkaziladi⁴⁰. Davlatlar rahbarlari strategik materiallar yetkazib berish borasidagi hamkorlik prinsipial ahamiyatga ega bo‘lsa-da, O‘zbekiston bilan Xitoy o‘rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishi O‘zbekistonda yangi ishlab chiqarish tarmoqlarini barpo etish va mavjudlarini modernizatsiya qilish maqsadida mamlakatimizga yuqori texnologiyalarni jalb qilish bilan bog‘liq istiqbolli loyihalar ijrosi ekanini qayd etdilar. Tashrif doirasida kimyo, neft-gaz, energetika, transport sohalarida yirik sarmoyaviy loyihalarni amalga oshirish to‘g‘risidagi bitimlar imzolandi. Bu hujjatlar, jumladan, Dehqonobod kaliyli o‘g‘itlar zavodining ikkinchi navbatini barpo etish, Angren shahrida avtomobillar va qishloq xo‘jaligi texnikasi uchun shinalar ishlab chiqarishni tashkil qilish, konveyer lentasini ishga tushirish, shuningdek, butadion kauchuk, suyultirilgan

⁴⁰ O‘sha joyda.

tabiiy gaz, metanol, monoxloruksusli kislota ishlab chiqarish, issiqlik elektr stansiyalarida yangi energiya bloklari qurish, ko‘mir sanoatini modernizatsiya qilish va rivojlantirish, zamonaviy elektrovozlar yetkazib berish kabi yo‘nalishlarga qaratilgan. XXRning yetakchi telekommunikatsiya kompaniyalari – “Xuawei” va “ZTE” bilan qo‘shma sarmoyaviy loyihalarni amalga oshirish yuzasidan kelishuvlarga erishildi. Transport-kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish, O‘zbekiston va Xitoyni bog‘laydigan ishonchli koridorlar barpo etish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Sharqiy Xitoy – Navoiy aeroporti – Yevropa havo yo‘lini ochish hamda O‘zbekiston va Xitoyni eng qisqa yo‘llar bilan bog‘laydigan temir yo‘l magistralini barpo etish masalalari muhokama qilindi. XXR Raisi Xu Szintao savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlik istiqbollari haqida so‘z yuritar ekan, Xitoy O‘zbekistonni uzoq muddatli asosda hamkorlik qiladigan ishonchli sherik, deb bilishini alohida ta’kidladi⁴¹.

Davlatlarimiz o‘rtasidagi faol munosabatlar va imzolangan hujjatlar bilan bir qatorda, ikki tomonlama aloqada savdo bo‘yicha qulaylik yaratish tamoyili ham mavjud bo‘lib, bu holat o‘zaro tovar almashishning doimiy o‘sishiga sabab bo‘lmoqda. 2012-yilda u oldingi yilga nisbatan 24 foizga oshib, 3,36 mlrd. AQSH dollariga yetgan⁴². O‘zbek korxonalari Xitoy bozorida talabga ega bo‘lgan keng turdagи eksport tovarlarni ishlab chiqarmoqdalar. Ular jumlasiga kimyoviy mahsulotlar, neft-kimyo va neftni qayta ishlash mahsulotlari, polietilen, rangli metallar, kaolin va boshqalar kiradi. O‘z navbatida, XXRdan mexanik va elektron qurilmalar, qora metallar, plastmassa va undan yasalgan mahsulotlar O‘zbekiston bozoriga import qilinadi. XXRning rivojlanish davlat banki va Eksimbank kreditlari asosida O‘zbekistonda neft-gaz, telekommunikatsiya, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligi sohalarida bir qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Yildan-yilga investitsion hamkorlik kengaymoqda. Bunga O‘zbekistonda Xitoy investitsiyasining miqdori 4 mlrd AQSH dollariga teng bo‘lganini isbot sifatida

⁴¹O‘sha joyda.

⁴² А.Бозоров, М.Мамадиева. Ўзбекистон–Хитой алоқалари тарихидан. Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда мавзусидаги IV республика илмий–назарий анжумани материаллари. Фарғона 2017 йил. Б. 280.

keltirish mumkin. Bugungi kunda XXR investorlari ishtirokida 450 korxona faoliyat ko'rsatmoqda, ularning 69 tasi yuz foiz Xitoy kapitali bilan ta'minlangan. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo vazirligida 71 ta Xitoy korxonasi akkreditatsiyadan o'tgan bo'lib, ularning faoliyat sohasi eksport-import operatsiyalarni amalga oshirish, tekstil ishlab chiqarish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishslash, axborot texnologiyalari va boshqalarni qamrab oladi⁴³.

O'zbekistonda Xitoy Milliy neft-gaz korporatsiyasi bilan hamkorlikda respublikaning neft-gazga boy xududlarida geologorazvedka ishlarini amalga oshirish bo'yicha qator dasturlar – O'zbekiston-Xitoy gaz quvuri quvvatini oshirish bo'yicha hamkorlikda ishlar amalga oshirilmoqda. 2013-yilda savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish maqsadida Pekin, Suchjou, Xanchjou va Shanyanda investitsion forumlar tashkil etildi. Natijada Xitoy korxonalari ishtirokida umumiyligi 300 million dollarlik 51 dasturni amalga oshirish yuzasidan kelishuvlar imzolandi. O'sha yilning iyulida Toshkentda "Jizzax maxsus iqtisodiy hududi Xitoy korxonalari uchun betakror investitsion imkoniyatdir" nomidagi investitsiya forumi tashkil etildi. Uning yakunlari natijasida Jizzax maxsus iqtisodiy hududida hamkorlikdagi investitsiya dasturlarini amalga oshirish yuzasidan umumiyligi 100 mln dollardan ortiq 20 ta shartnoma imzolandi⁴⁴. Yirik sarmoyaviy loyihalarni hayotga tadbiq etish haqida haqida fikr yuritganda, Urganchda faoliyat ko'rsatayotgan "Xuzhou Construction Machinery Group" hamda "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasida tashkil etilgan, fotoelektr batareyalari va quyosh panellari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "Suntech Power" qo'shma korxonasini tilga olish joizdir. Shu bilan birga, "Angren" maxsus industrial zonasida "Huainan Rich International Trading" kompaniyasi etil spirit, tiqinlab berkitadigan tabobat flakonlari ishlab chiqarishni yo'lga qo'ymoqda. "Jinsheng group" kompaniyasi esa Qashqadaryoda paxtani qayta ishslash zavodi qurilishi ishlarini amalga oshirmoqda. "Jizzax" maxsus industrial zonasida

⁴⁴ Ўзбекистон ва Хитой ҳамкорлиги жадал ривожланмоқда // Халқ сўзи. 2014 йил 21 май.

zamonaviy liftlar ishlab chiqarish bilan “Yangzhou Sanxin Mining Equipments” kompaniyasi shug‘ullanmoqda⁴⁵. Hozirgi kunda 2013-yilda tashkil etilgan “Jizzax” maxsus industrial zonasining Siradaryo viloyati filialida amalga oshirilayotgan investitsiyalarning 25,4% aynan Xitoy davlatiga tegishlidir.

“Peng Sheng” qo‘shma korxonasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 24-iyundagi PQ-1139-sonli qaroriga asosan Xitoy davlati bilan hamkorlikda tashkil etilgan bo‘lib, viloyat Adliya boshqarmasi tomonidan 2009-yil 28-martda ustav fondi 3,5 mln. AQSh dollariga teng “Peng-Sheng” O‘zbekiston-Xitoy qo‘shma korxonasi ro‘yxatdan o‘tgan. Korxonaning ta’sischilari Xitoyning “Wenzhou Jinsheng trade Co. LTD” kompaniyasi (50%) hamda O‘zbekiston-Xitoy “Sinlong” QK (50%). Korxonaga 36,2 hektar yer maydoni ajratilgan. “Peng-Sheng” O‘zbekiston-Xitoy QK asosiy faoliyat turlari quyidagilar: keramik plitkani ishlab chiqarish, qora mol terisini qayta ishlash, charm poyabzal ishlab chiqarish. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan loyihalarini amalga oshirish uchun umumiy qiymati 26 mln. dollardan ziyod miqdorda investitsiyalar o‘zlashtirilgan. Ushbu loyihalarning yillik ishlab chiqarish quvvati 4 mln. metr keramik plitkalar, 600 ming dona qora mol terisi hamda 300 ming juft poyabzal tashkil etadi⁴⁶.

XXI asr globallashuv asridir. Bugungi kunimizni internet, mobil telefonlarsiz tasavvur etish qiyin. O‘zbekiston ham bu soha bo‘yicha XXR bilan hamkorlikda muhim ishlarni amalga oshirmoqda. Xitoyning eng yirik kompaniyalaridan bo‘lgan “Huawei” va “ZTE” O‘zbekistonda telekommunikatsiya, axborot texnologiyalari sohasining moddiy texnik bazasini yaxshilash va shu sohada yosh kadrlarni tayyorlash borasida ko‘plab ishlar qilinmoqda. Jumladan, “O‘ztelekom” AK Farg‘ona viloyati filiali 2005-yil Xitoyning “Huawei” kompaniyasida ishlab chiqarilgan zamonaviy raqamli stansiyalar asosida modernizatsiya qilindi. Unga ko‘ra, umumiy sig‘imi 62 ming abonentdan ziyod kommutatsiya stansiyalari o‘rnatildi va viloyat bo‘yicha yagona etti xonali telefon raqamlash tizimiga o‘tkazildi. Umuman olganda yurtimizdagi

⁴⁵ www.uzlidep.uz. Xitoy-mamlakatimizning yirik sarmoyaviy sheriklaridan biri.

⁴⁶ www.is.uz. Yutuqlar tarixi

uyali aloqa kompaniya va internet provayderlarning asosiy texnik bazasini “Huawei”, “ZTE” kompaniyalarining mahsulotlari tashkil etadi.

2008-yilda O‘zbekiston hukumati Xitoyning "China National Chemical Engineering Group Corp." korporatsiyasi bilan Farg‘ona va Andijon viloyatlarida qiymati 45 mln dollarlik yangi mintaqalararo suv quvurini qurish to‘g‘risida bitim tuzdi. Qurilajak mintaqalararo suv quvurining quvvati yiliga deyarli 38 mln metr suvni tashkil etib, Farg‘ona, Marg‘ilon shaharlari va ularga tutash aholi punktlari sifatli ichimlik suv bilan ta’minlandi. Rejalashtirilgan loyihaning 44,97 mln dollarlik qarz mablag‘lari Xitoyning Eksimbanki va Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki krediti hisobidan moliyalashtirildi. Ushbu qarz mablag‘lari 20 yil muddatga berilgan bo‘lib, 5 yillik imtiyozli davrga ega. Shuningdek, qurilish ishlarining qolgan mablag‘i davlatni suv resurslari bilan ta’minlash bo‘yicha operator hisoblangan “Suvoqava” Farg‘ona viloyat boshqarmasi mablag‘lari hisobidan ham moliyalashtirildi⁴⁷.

Farg‘ona shahrida XXR bilan hamkorlikda o‘z faoliyatini boshlagan “Sun Fa” OAJ qo‘shma korxonasi 2014-yilda xorijiy investitsiya jalb etilishi natijasida tashkil etilgan bo‘lib, korxonada 20 dan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratildi. Korxonada asosan kollej bitiruvchilar faoliyat ko‘rsatib, 2 va 3 g‘ildirakli, yuk ko‘tarish og‘irligi 1 tonnadan 2,5 tonnagacha bo‘lgan „Hamkor” rusumli mototsikllarni yig‘ish yo‘lga qo‘yilgan. Korxona yaqin kelajakda ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish va rivojlantirish maqsadida bir necha istiqbolli loyihalarni hayotga tadbiq etishni rejalashtirgan. Qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilik tarmog‘ida zarur bo‘ladigan ixcham traktorlar, kichik ishlab chiqarish texnologiyalarini yo‘lga qo‘yishni ko‘zda tutuvchi biznes-loyiha ana shulardan biri hisoblanadi. Bu loyihani amaliyotga joriy etish orqali 60 dan ortiq ish o‘rinlari yaratiladi.

Farg‘ona shahridagi tashkil etilgan “Moderna Ceramic Industries Fergana” o‘zbek-xitoy qo‘shma korxonasida ishlab chiqarilayotgan keramika mahsulotlarining sifati bilan xaridorlarga manzur bo‘lmoqda. Xitoy va Italiya

⁴⁷ www.uzreport.uz 30.06.2008.

texnologiyalari asosida tayyorlanayotgan mahsulotlar ayni paytda qo'shni mamlakatlarga ham eksport qilinmoqda. 2016-yil ish boshlagan qo'shma korxonada 150 nafar yoshlar ish bilan ta'minlangan.

O'zbekiston va Xitoy o'rtaida barcha sohalar qatori transport kommunikatsiyalari sohasidagi hamkorlik ham yuksak sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Xitoyda ishlab chiqarilgan eng yuqori texnik xususiyatlar va qator afzallikkarga ega zamonaviy va yuksak samarali elektrovoz hamda teplovozlarning mamlakatimizga etkazib berilgani o'zaro manfaatli hamkorlikka yorqin misol bo'la oladi. O'zbekiston bilan Xitoy o'rtaida eng qisqa temir yo'l tarmog'ini barpo etish o'zaro iqtisodiy va transport sohasidagi hamkorlikning dolzarb strategik yo'nalishlaridandir. Bu Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlariga, undan keyin Janubiy Osiyoga chiqishini ta'minlabgina qolmay, qadimgi Buyuk ipak yo'li yangicha ko'rinishda o'z faoliyatini davom ettiradi. Angren-Pop elektrlashtirilgan temir yo'lining barpo etilishi bu borada "ko'pri" vazifasini o'taydi. "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati va Xitoyning "China Railway Tunnel Group" kompaniyasi hamkorligida bunyod etilgan tunnel qurilishiga umumiyligi 455 million dollarlik mablag' yuborildi. Ushbu bunyodkorlik ishlarida kompaniyaning mingdan ziyod ishchi-mutaxassislari, uch mingdan ziyod temiryo'lchilarimiz, uch yuzdan ortiq elektrmontajchi ishtirok etdi. Uzunligi 123,1 kilometr bo'lgan Angren-Pop temir yo'lining Qamchiq dovonidan o'tgan qismida 19,2 kilometrlik tunnel ochildi. Bu Markaziy Osiyo va MDHda eng uzun zamonaviy tunnel hisoblanib, dunyo miqyosida esa 13-o'rinda turadi. "Ushbu temir yo'l Yevropa bilan Osiyo qit'alarini o'zaro bog'laydigan transmilliy transport yo'lagining o'ta muhim uzviy bo'g'iniga aylanadi. Shu tariqa, Toshkentdan Farg'ona vodiysi viloyatlariga yuk tashish vaqtiga 2 barobar qisqaradi, yuk tashish ta'riflari, ya'ni qimmatligi esa to'rt marta kamayadi, 1,5 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratiladi.⁴⁸

⁴⁸ Каримов. И Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. Ташкент. 2015. Б.167.

Davlat statistika qo‘mitasi axborot xizmati xabariga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasida 2016-yilda 503 ta yangi korxonalar ro‘yhatga olingan bo‘lib, shundan 95 tasi XXRga tegishlidir⁴⁹.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda O‘zbekiston va XXR o‘rtasidagi hamkorlik o‘zining yuqori cho‘qqisiga chiqdi desak bo‘ladi. Iqtisodiyotning mashinasozlik, kimyo sanoati, yengil sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport, axborot texnologiyalari kabi o‘nlab sohalarida yirik kelishuvlar va loyihamalga amalga oshirilmoqda. XXR O‘zbekiston uchun siyosiy jabhada strategik hamkor, iqtisodda esa eng ishonchli sherik vazifasini bajarmoqda. Deyarli har yili ikki davlat prezidentlarining uchrashuvlari, biznes forum va ko‘rgazmalar hamkorlikni o‘sishiga, yangi jabhalarni ishga solinishiga olib kelmoqda. Keyingi hamkorlik bosqichida O‘zbekiston Respublikasi sanoatga Xitoy texnologiyasini jalgan holda, xomashyoni qayta ishlab yarim tayyor va tayyor mahsulotlar eksport salmog‘ini oshirish va transport sohasi, ayniqsa, temiryo‘l tarmog‘ini kengaytirib bevosita Tinch okeaniga Xitoy orqali chiqish va o‘z mahsulotlarini sotish imkoniyatiga ega bo‘lish vazifasi turibdi. Hozirda Xitoy O‘zbekistonning eng yirik sarmoyachisi hisoblanadi. Tashkil etilayotgan qo‘shma korxona va zavodlarda yangi ishchi o‘rinlari yaratilib, aholining turmush darajasini o‘sishiga hizmat qilmoqda. Demak, mana shu omil ham O‘zbekistonning Xitoy bilan iqtisodiy hamkorlik samarasini yuksak ekanligini ko‘rsatadi.

⁴⁹ www.uzreport.uz. 2016-yilda 503ta chet el kapitali ishtirokidagi yangi korxonalar ro‘yhatga olindi.

II BOB. O'ZBEKISTON – HINDISTON O'RTASIDA SIYOSIY VA IQTISODIY ALOQALAR

2.1. O'zbekiston Respublikasining Hindiston tomonidan e'tirof etilishi va uning huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yillarda mamlakat tashqi siyosiy faoliyatini shakllantirish jarayonida ayrim qiyinchiliklarga duch kelindi, ular bevosita sobiq mustabid sovet tuzumining asoratlari bilan bog'liq edi. "O'zbekiston Respublikasi uchun mustaqil tashqi siyosat yuritish, – ta'kidlagan edi Prezidenti I.A.Karimov, – davlat faoliyatining yangi va amalda qo'llanilmagan yo'nalishlaridan biridir. Yakka hokimlik tizimi sharoitida O'zbekiston xalqaro maydonga to'g'ridan-to'g'ri va ochiq chiqish imkoniyatidan mahrum etilgan bo'lib, o'zining tashqi siyosiy davlat idoralariga, yetarlicha diplomatlariga va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi mutaxassislariga ega emas edi"⁵⁰. Shunga qaramay, mamlakat rahbariyati o'zbek xalqi va uning davlatchilik tarixidan yangi sahifa ochilgan birinchi kundanoq O'zbekiston tashqi siyosatining asoslarini shakllantirishga jadal kirishdi. Natijada, qisqa muddat ichida jahon tajribasi va umum e'tirof etgan standartlar asosida tashqi siyosat yuritadigan va xalqaro aloqalar bog'laydigan institutsion tizimlar shakllantirildi. Ayni vaqtida, O'zbekiston Prezidenti I.Karimov boshchiligidagi mamlakat tashqi siyosatining milliy manfaatlarga mos keluvchi strategiyasi, prinsiplari va ustuvor yo'nalishlari ham ishlab chiqildi.

Mamlakat tashqi siyosiy faoliyatining asoslarini ishlab chiqilishida, hamda mamlakatning real siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy darajasidan kelib chiqib, dunyodagi yangi industrial rivoshlanayotgan davlatlar bilan yaqin aloqalar o'rnatishga alohida ahamiyat berildi.

Shu munosabat bilan O'zbekiston tashqi siyosatining muhim yo'nalishlardan biri bo'lgan Hindiston Respublikasi bilan har tomonlama o'zaro foydali

⁵⁰ Каримов И. А. Ўзбекистон миллий истиқолол иқтисод сиёсат мафкура. – Тошкент. Ўзбекистон, 1996. Б. 50.

munosabatlar va hamkorlik o‘rnatish hamda uni rivojlantirish zarurligiga alohida urg‘u berilmoqda.

Hindiston davlati maydoni 3287,1 ming km². Aholisi 1 mlrd. 177 mln bo‘lib, poytaxti Dehli shahridir. Hindiston ma’muriy jihatdan 35 ta shtat va ittifoq hududiy bo‘linishlariga ega⁵¹.

Davlat tuzumi jihatdan Hindiston federativ respublika (29 ta shtat va 6 ta ittifoqqa bo‘linadi). Hamkorlik tarkibida amaldagi konstitutsiyasi 1950-yil 26-yanvarda qabul qilingan. Davlat hokimiyatining oliy organi – Parlament ikki palataga bo‘linadi. Quyi palata (xalq palatasi) va yuqori palata (shtatlar kenashi)dan iborat. Davlat boshlig‘i - Prezident, u ayni vaqtida oliy bosh qo‘mondon hisoblanadi.

Ta’kidlash lozimki, bugun Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasidagi mamlakatlarning rivojlanishi tajribasini o‘rganish, O‘zbekiston Respublikasi uchun ulkan strategik qiziqish uyg‘otadi. Bunday fikrlashimizga quyidagi sabablar asos bo‘lib xizmat qiladi.

Birinchidan, O‘zbekiston hamda Janubiy Osiyo mamlakatlarining tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash masalalaridagi qarashlari o‘xshash ekanligi. Jumladan, O‘zbekiston Markaziy Osiyoda tutgan geosiyosiy o‘rniga ko‘ra, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) singari submintaqaviy siyosiy-iqtisodiy tashkilot doirasida faollik ko‘rsatmoqda. O‘z o‘rnida Hindiston ham endilikda ushbu tashkilotning faoliyatiga e’tibor qaratib kuzatuvchi davlat sifatida qatnashmoqda. Maqsadlarning mushtarakligi shundaki, tashkilot tarkibida xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash, xalqaro terrorizm va diniy ekstrimizga qarshi birgalikda kurashish, shunigdek Afg‘oniston, Pokiston kabi notinchliklar yuz berayotgan davlatlar ikki davlatning iqtisodiy-siyosiy aloqalariga rahna solayotganiga, ushbu davlatlardagi mojarolarni tinch yo‘l bilan hal qilinishida, bir maqsadlarni o‘rtaga qo‘yayotganligi e’tiborga loyiqidir.

Ikkinchidan, bozor islohatlari asosida ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar qilayotgan O‘zbekiston Respublikasi uchun Janubiy va Sharqiy Osiyo

⁵¹ Индия – 2008. NEW. Delhi India. 2008. C.18.

mamlakatlari to‘plagan tajriba, ularning taraqqiyot yo‘lida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etish borasida hamkorlik shakllari juda qadrlidir.

Uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasi va Hindiston o‘rtasida madaniy va diniy masalalarda ko‘plab umumiy jihatlar mavjud. Bu, avvalo, ularda qadimiy madaniy-ma’naviy an’analar mushtarakligi, umuminsoniy manfaatlarga gumanistik qarashlari va aksariyat aholi orasida musulmon Boburiylar avlodlarini tashkil qilish bilan bog‘liqdir.

Hindiston mamlakatimiz mustaqilligini birinchilar qatori tan olganini alohida ta’kidlash lozim. O‘zbekiston mustaqilligi arafasida 1991-yil 17–19-avgust kunlari O‘zbekiston hukumatining rahbari I.Karimov Hindiston safarida bo‘lib, mamlakat bilan SSSR davlatlari ichida birinchi bo‘lib mustaqil o‘zaro siyosiy-iqtisodiy aloqalar to‘g‘risida bir qancha shartnomalar tuzib kelishga erishgan edi. O‘zbekiston-Hindiston o‘rtasidagi do‘stlik va hamkorlik munosabatlari O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, yangi bosqichga ko‘tarildi. Hindiston O‘zbekiston mustaqilligini 1991-yil 26-dekabrda tan olib, Toshkentda 1992-yil 18-mart kuni diplomatik munosabatlar o‘rnatish to‘g‘risidagi protokol imzolandi⁵². Shundan beri ikki mamlakat o‘rtasidadagi hamkorlik ko‘lami va qamrovi yildan-yilga tobora kengaymoqda. Hindiston bilan hamkorlikning rivojlantirish O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridandir. Mamlakatimiz Hindiston bilan oliy darajada tashqi siyosiy mahkamalari o‘rtasida delagatsiyalar orqali mutazam siyosiy muloqot olib bormoqda.

1993-yil 23–25-may kunlari Hindiston Bosh vaziri Narasimxa Rao davlat tashrifi bilan O‘zbekistonda bo‘ldi. Safar kunlarida “O‘zbekiston Respublikasi bilan Hindiston Respublikasi o‘rtasida davlatlararo munosabatlar va hamkorlik prinsiplari to‘g‘risida” shartnoma, foyda va mulkka ikki yoqlama soliq solmaslik, havo yo‘llari va savdo-iqtisodiy hamkorlik to‘g‘risida bitimlar imzolandi. I.Karimovning 1993-yil 17–19-avgust kunlari Hindistonga rasmiy tashrifi chog‘ida ikki mamlakat o‘rtasida iqtisodiy, savdo va ilmiy-texnikaviy hamkorlik to‘g‘risida bitim imzolandi. 1995-yil 25-avgust kuni Toshkent shahrida Hindistonning

⁵² Фофуров А. Ҳиндистон. – Тошкент. 2010. Б. 110.

“TATA Projekte LTD” firmasi tomonidan qurib bitkazilgan 600 o‘rinli salomatlik zali, majlislar xonasi, servis xizmati, yer osti garaji, sauna, barlar, katta restoranlar bo‘lgan zamonaviy mehmonxonaning ochilishi fikrimizning dalilidir⁵³.

Ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik munosabatlarni I. Karimovning 2000-yil 1-3-may kunlari Hindistonga qilgan safari yanada yuqori pog‘onaga ko‘tardi. Safar paytida O‘zbekiston Prezidenti Hindiston Prezidenti va Bosh vaziri bilan muzokaralar olib borib, uning yakunida 10 ga yaqin hujjatlar imzolandi. Ular orasida xalqaro jinoyatchilik, terrorchilik, diniy esktremizm, narkotik moddalar va qurol-yarog‘ kontrabandasiga qarshi birgalikda kurashga qaratilgan O‘zbekiston bilan Hindiston o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risida qo‘shma bayonot, jinoyat qidiruv ishlarida huquqiy yordam va ekstraditsiya to‘grisidagi shartnoma muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, iqtisodiy, madaniy, ta’lim, axborot, bojxona sohalari bo‘yicha hamkorlik qilish haqida hujjatlar imzolandi. O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasida o‘zaro manfaatli aloqalarga xizmat qiluvchi 40 ga yaqin hujjatlar qabul qilingan. O‘zbekistonda 2000-yilda Hindiston bilan hamkorlikda tashkil etilgan 30 ga yaqin qo‘shma korxona faoliyat ko‘rsatdi.

O‘zbekiston bilan Hindiston o‘rtasida aloqalarning huquqiy asoslari turli sohalardagi ikki tomonlama va ko‘p tomonlama hamkorlikni tartibga solib turuvchi davlat, hukumat, muassasalar va idoralararo hujjatlar tashkil qiladi. 2009-yilgacha ikki davlat o‘rtasida 60 dan ortiq rasmiy hujjatlar imzolandi. 1992-yil Toshkentda Hindistonning bosh konsulxonasi, 1992-yil Dehlida O‘zbekiston Respublikasi konsulxonasi (1994-yildan esa elchixonasi) faoliyat boshlagan⁵⁴. Dehlidagi O‘zbekiston elchixonasiga maxsus yer maydon ajratilib, ma’muriy bino va elchixona xodimlari yashaydigan xonodon ajratildi. 2010-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov 4 marta (1991, 1994 , 2000, 2005-yillar) rasmiy tashrif bilan Hindistonda bo‘ldi. 2006-yilning aprelida Hindistonning yangi bosh vaziri Manmahon Singx O‘zbekistonga rasmiy tashrif

⁵³ Усмонов К. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент. “Илм зиё”, Б. 293.

⁵⁴ Фофуров А. Хиндистон. –Тошкент. 2010. Б. 110.

buyurdi. Ikki davlat o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlar qator iqtisodiy, siyosiy, gumanitar bitim va hujjatlarda o‘z aksini topdi.

Davlatimiz rahbarining 2005-yil 4-aprel kuni Hindistonga amalga oshirgan davlat tashrifi ikki tomonlama hamkorlik rivojidagi g‘oyat muhim voqeа bo‘ldi⁵⁵. Tashrif oldidan Toshkent xalqaro aeroportida jurnalistlarga intervyu berar ekan, Hindistonni axborot texnologiyalari sohasida rivojlangan dalatlar qatoridan joy olganligi, birgina 2004-yilda 12.5 milliard AQSH dollariga teng axborot texnologiyalari mahsulotini eksport qilganligini Islom Karimov alohida qayd etib o‘tdi. Uchrashuv chog‘ida tomonlar o‘rtasidagi munosabatlar izchil rivojlanib borayotganligini ta’kidlashdi. Bu hamkorlik davlatlarimizning uzoq istiqboldagi milliy manfaatlariga mos bo‘lib, o‘zaro aloqalarning yanada mustahkamlanishishiga, ham mintaqa, ham jahon miqyosida tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, Xalqaro transafg‘on transport yo‘lagini barpo etishga oid loyihani hayotga tezroq tadbiq etish mumkinligi qayd etildi. O‘sha 2005-yilga nisbatan Hindiston salohiyatiga alohida e’tibor qaratilsa, quyidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Mamlakat sanoat ishlab chiqarish, jalb qilinayotgan xorij sarmoyasi hajmi jihatdan dunyodagi dastlabki o‘nlikka kirgan. Yadroviy texnologiyalar va koinotni zabit etish borasida ham eng ilg‘or mamlakatlar safida turadi. Jahonda axborot texnologiyalari yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning yarmidan ortig‘i Hindistonning hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. I.Karimov “Rashtrapati Bxavan” qarorgohida Hindiston Prezidenti Abdul Qalam, “Toj Mahal” qarorgohida Hindiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Natvar Singh , mudofaa vaziri Pranab Mukerji, Hindiston vitse-prezidenti Bxayron Singh Shekxavat, savdo va sanoat vaziri Kamol Natlar bilan muzokaralar olib bordi.

Tashrif doirasida boshqa hujjatlar qatorida kichik biznes va xususiy tadbirdorlik sohasida hamkorlik to‘g‘risida hukumatlararo bitim imzolandi. 2005-yilda yana bir muhim hujjat – “O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi bilan Hindiston

⁵⁵ Самарали мулокотлар // Халқ сўзи. 2005 йил 6 апрель.

savdo-sanoat palatalari uyushmasi o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risida” bitim imzolandi.

2011-yil 17–18-may kunlari birinchi prezidentimizning Hindistonga davlat tashrifi bo‘lib o‘tdi. Hindiston Prezidentining “Rashtrapi Bxayan” saroyi oldidagi maydonda tantanali kutib olish marosimi bo‘ldi. Shu yerning o‘zida OAV bilan qisqa matbuot anjumani bo‘lib o‘tdi. Unda birinchi Prezidentimiz O‘zbekiston va Hindiston aloqalarining bugungi holati va istiqbolini tanqidiy tahlil qilish zarurligini ta’kidladi. Xalqaro va mintaqaviy dolzarb masalalar haqida fikr almashish, ishga solinmayotgan imkoniyatlardan foydalanish orqali ikki davlat munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqish kerakligini aytди. Bosh vazir Manmohan Singh bilan tor doirada uchrashuv bo‘ldi. BMT, ShHT va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasidagi samarli hamkorlik muhokama etildi. O‘zbekiston Hindistonning BMT Xavfsizlik kengashining kengaytiriligan tarkibiga doimiy a’zo bo‘lish borasidagi intilishlarini qo‘llab-quvvatlab kelmoqda. Qo‘sni Afg‘onistonidagi vaziyat tomonlarning e’tiboridan chetda qolmadи, zero bu davlatda tinchlik o‘rnatalishi O‘zbekiston-Hindiston munosabatlarida yangi davrni boshlab beradi. Masofa qisqarib, iqtisodiy aloqalar jonlanadi va Hindistoni Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqasi kengayadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, yangi “O‘rta Osiyo Fors Ko‘rfazi” va Transafg‘on yo‘lagi transport koridorlarining shakllanishi tufayli yuzaga keladigan imkoniyatlarga qiziqish ortmoqda. Kengaytirilgan oliy darajadagi muzokarada savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy rivojlanish ko‘rsatkichlar qoniqarli emasligi ta’kidlandi. Tashrif davomida I.Karimov Hindiston Prezidenti Pratibha Patil, vitse-prezident, Parlamentning yuqori palatasi spikeri Hamid Ansari, tashqi ishlar vaziri Somanaxalli Malayya Krishna, muxolifat yetakchisi Sushma Svaraj bilan muloqotlar olib bordi. O‘zbekiston rahbari Mahatma Gandi yodgorlik majmuiga tashrif buyurib, hurmat bajo keltirdi. Tashrif asnosida iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlik doirasida yoqilg‘i energetikasi, axborot texnologiyalari, to‘qimachilik, farmatsevtika, bank sohasi va savdo-sotiqni rivojlantirish borasida aloqalarni kengaytirishga qaratilgan qator hujjatlar imzolandi. Iqtisodiy sohaga oid

hujjatlarning umumiy qiymati 2,2 milliard AQSH dollardan oshadi⁵⁶. Imzolangan ushbu hujjatlar va tashrif yakunlaridan xulosa qilib shuni aytish mumkinki barcha yo‘nalishlardagi uzoq muddatga mo‘ljallangan strategik sheriklik yangi tamoyil va qo‘shimchalar bilan yangi bosqichga ko‘tarildi.

2015-yilning 6-iyul kuni Hindiston Bosh Vaziri Narendra Modi mamlakatimizga rasmiy tashrif bilan keldi. O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi munosabatlar yuksak darajaga ko‘tarilgani va o‘zaro hamkorlik xalqlarimizning ko‘p asrlik do‘stona aloqalariga asoslanishi bilan ajralib turadi. O‘zbekistonda Hindistонни boy tarix va o‘ziga xos madaniyatga ega mamlakat sifatida azaldan yaxshi biladi. Xalqimizni ushbu mamlakat bilan qadimiyligi madaniy va savdo-iqtisodiy aloqalar, samimiyligi do‘stlik rishtalari bog‘lab turadi. O‘zbek va hind xalqlari hamkorligining tarixi, adabiyoti, musiqasi, tasviriy san’ati va me’morchiligi, ularning bir-birini boyitishi ko‘p jihatdan buyuk ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan bog‘liqdir. Hindiston Respublikasi Bosh vaziri rasmiy tashrifining asosiy tadbirlari Ko‘ksaroyda bo‘lib o‘tdi. Oliy martabali mehmonni rasmiy kutib olish marosimidan so‘ng I.Karimov va Narendra Modi tor doirada muzokara o‘tkazdi. Sizning O‘zbekistonga ushbu dastlabki rasmiy tashrifingizni mamlakatlarimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi muhim voqeа, O‘zbekiston bilan Hindiston o‘rtasida azaldan qaror topgan do‘stona munosabatlarni rivojlantirish va mustahkamlashda yangi bosqich, deb bilamiz, – dedi I.Karimov. Narendra Modi O‘zbekiston Hindistonning Markaziy Osiyodagi eng ishonchli va muhim sheriklaridan biri va mazkur tashrif o‘zaro munosabatlarni yanada faollashtirish va yangi bosqichga ko‘tarish uchun yaxshi imkoniyat ekanini ta’kidladi. Tomonlar dunyoda vaziyat shiddat bilan o‘zgarib borayotgani, qarama-qarshiliklar, keskinlik, global va mintaqaviy geosiyosiy raqobat avj olayotgani, terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi tobora keng tarqalayotganini va ushbu tahdidlar Markaziy Osiyo mintaqasiga bevosita yoki bilvosita ta’sir o‘tkazayotgani inobatga olinadigan bo‘lsa, bugungi muzokalararning dolzarbliyi yanada muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etdilar. O‘zbekiston bilan Hindiston o‘rtasidagi

⁵⁶ Old-president.uz.O‘zaro hamkorlik va tenglikka asoslangan uzoq muddatli strategik sheriklik.

munosabatlarning bugungi holati va istiqbollarini atroficha tahlil qilish eng dolzarb masalalardan biri bo'lib, Islom Karimov va Narendra Modi muzokaralarni aynan shu masalalarni muhokama etishdan boshladi. O'zbekiston – Hindiston munosabatlarini foydalanilmagan imkoniyatlarni amalga oshirish, siyosiy, iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar sohalarda o'zaro hamkorlikni yanada kengaytirish orqali yangi bosqichga ko'tarishga doir fikr almashildi. Ikki mamlakatni birday tashvishga solayotgan mintaqaviy va xalqaro dolzarb muammolar ham bat afsil muhokama etildi. Xususan, Afg'onistondagi vaziyat yuzasidan fikr almashinib, bu muammoni harbiy yo'l bilan hal etib bo'lmashigi haqida yakdil fikr bildirildi. Bu borada Afg'onistonga iqtisodiy yordam ko'rsatish, ijtimoiy, infratuzilmaviy va gumanitar loyihalarni amalga oshirish, aholi bandligi muammosi, qashshoqlik va huquqsizlikka qarshi kurashish bo'yicha dolzarb vazifalarni hal etishga katta e'tibor qaratish, Afg'oniston xalqining ko'p asrlik an'ana, urf-odat va qadriyatlarini hurmat qilish zarurligi qayd etildi. Ushbu jafokash mamlakatda tinchlik va osoyishtalik o'rnatish mintaqamiz xalqlarining manfaatlariga mos kelishi, ko'plab umummintaqaviy maqsad va vazifalarga erishishning muhim omillaridan ekani ta'kidlandi. Iqtisodiy nuqtai nazardan Afg'onistonda tinchlik va barqarorlik o'rnatish nafaqat mintaqaviy hamkorlikni kengaytiradi va mustahkamlaydi, ayni chog'da Hindiston va Markaziy Osiyo bozorlari o'rtasidagi masofani qisqartiradigan iqtisodiy foydali yo'nalishlarni ochib berish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Muhim mintaqaviy va global masalalarni hal etishda yondashuvlarning bir-biriga mos kelishi va o'xshashligi tomonlarning xalqaro tashkilotlar doirasida o'zaro hamkorligining ishonchli asosi ekani qayd etildi. Mamlakatlarimiz BMT Bosh assambleyasi sammitlarida bir-birining tashabbuslarini, BMTning turli organlariga nomzodlarini qo'llab-quvvatlab, boshqa xalqaro va mintaqaviy tuzilmalarda o'zaro faol hamkorlik qilib kelmoqda. Ikki mamlakat o'rtasida parlamentlararo aloqalar ham yo'lga qo'yilgan. Tashqi siyosat mahkamalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik doirasida muntazam siyosiy maslahatlashuvlar o'tkazib kelinmoqda. O'zbekiston bilan Hindiston o'rtasidagi munosabatlarning mustahkam huquqiy asosi, avvalo, 2011-yilning may

oyida imzolangan “Strategik sheriklik to‘g‘risida” gi qo‘shma bayonot keng ko‘lamli yo‘nalishlar, jumladan, har ikki tomon uchun manfaatli bo‘lgan siyosiy, iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlikni yanada faollashtirish borasida keng imkoniyatlар ochib berishi ta’kidlandi⁵⁷.

Xalqaro siyosiy maydonda ham O‘zbekiston Hindiston bilan samarali hamkorlik qilib kelmoqda. O‘zbekiston Hindistonning BMT va ShHT kabi tashkilotlardagi rolini oshirish tarafdori. 2016-yil 23–24-iyun kunlari Ko‘ksaroyda Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi 15-yubiley sammiti bo‘ldi. Majlis O‘zbekiston Respublikasi raisligida o‘tdi. Hindiston Respublikasi va Pokiston Islom Respublikasining ShHTga a’zo davlat maqomini olish yo‘lidagi majburiyatlarini tog‘risidagi memorandumlar imzolangani Toshkent sammitining muhim voqealaridan bo‘ldi⁵⁸.

Ushbu sammitdan keyin Hindiston davlati tashkilotga a’zo bo‘lish uchun tegishli hujjatlar tayyorlana boshlandi⁵⁹.

Hindiston va Pokistonning ShHTning teng huquqli a’zosi maqomiga ega bo‘lishi tashkilot imkoniyatlarini kengaytirib, xalqaro maydonda dolzarb muammolarni hal etish, mintaqa va umuman dunyoda xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta’minlaydigan ko‘p tomonlama mexanizm sifatida tashkilot rolini yanada oshirishga xizmat qilishi ta’kidlandi. Shanxay hamkorlik tashkiloti majlisida Hindiston va Pokistonning ShHTga to‘la huquqli a’zo bolib kirish jarayoni boshlandi. “Shunga e’tibor bering, bu ikki davlat tashkilotga a’zo bo‘lsa, sayyoramizning 7 milliardlik aholisining 47%, yani deyarli teng yarmi ShHTga a’zo mamlakatlar hissasiga tog‘ri keladi. Ana shunday tarixiy voqeа O‘zbekiston poytaxti Toshkent shahrida sodir boldi”- deb ta’kidladi birinchi prezidentimiz⁶⁰.

Bu ikki davlatni ShHTga a’zo bo‘lishi tashkilotni xalqaro nufuzini oshirish bilan bir qatorda, ikki davlat o‘rtasidagi muammo bo‘layotgan Kashmir hududi masalasida ham ijobjiy o‘zgarish kutish mumkin.

⁵⁷ Old.president.uz.O‘zbekiston-Hindiston: hamkorlikni rivojlantirishning yangi imkoniyatlari.

⁵⁸ www.aza.uz. Shanxay hamkorlik tashkilotining Toshkent sammiti.

⁵⁹ Ostonada ShHTning 17-sammitida Hindiston va Poikiston tashkilot a’zoliligiga qabul qilindi.

⁶⁰ Karimov I. Ozodlik havosidan to‘yib nafas olgan xalq oz yo‘lidan hech qachon qaytmaydi 2016.B. 19-20.

Umumiy qilib aytganda, asriy aloqalar mustaqillikdan so‘ng yanada jonlandi. Davlatlarimiz siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalarda samarali hamkorlik qilib kelishmoqda. Ikki davlat oldidagi yechimini kutayotgan asosiy muammo bu albatta qo‘shti Afg‘oniston davlatidagi uzoq davom etayotgan notinch vaziyatdir. Afg‘oniston masalasida O‘zbekiston va Hindiston pozitsiyasi bir xil, ya’ni faqat tinchlik yo‘li bilan tomonlarni bir atrofiga yig‘ib, muzokaralar orqali hal etishdir. O‘zbekiston Respublikasi Hindiston davlati bilan siyosiy qarashlarda o‘xshashlik ko‘p. Davlatimiz Hindistonning BMT Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibiga doimiy a’zo bo‘lish borasidagi intilishlarini izchil qo‘llab-quvvatlaydi. Davlatlarimiz o‘rtasidagi siyosiy va diplomatik aloqalar iqtisodiy, madaniy, ilm-fan sohalarida ham namoyon bo‘lmoqda.

2.2. Ikki mamlakat o‘rtasida iqtisodiy sohalardagi aloqalar, ularning istiqbollari

O‘zbekiston Respublikasi mamlakat mustaqilligining dastlabki yillarida ishlab chiqilgan o‘z tashqi siyosiy strategiyasi va undagi asosiy ustuvor yo‘nalishlarini hayotga tadbiq etishga kirishdi. Bu borada respublikamizning Janubiy Osiyo mamlakatlari, jumladan Hindiston Respublikasi bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqlari o‘rnatilgani alohida diqqatga sazovordir.

O‘zbekiston Respublikasi Hindistonning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi xususiyatlarini ko‘rib yoki e’tiborga olib, bu davlat bilan o‘zaro manfaatli munosabatlarni an’anaviyligini tiklab, rivojlantirishga kirishdi. Buning bir qancha obyektiv sabablari mavjud:

- Hindiston va O‘zbekiston mustaqillikka erishgan hamda o‘z taraqqiyoti yo‘lini tanlab olgan sobiq mustamlaka mamlakatlardir. Shu bois Hindistonning yarim asrdan ortiq mustaqil taraqqiyoti davrida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishlarda olib borilgan islohotlar va bu borada to‘plangan tajriba yangi mustaqil davlatlar, jumladan O‘zbekistonda katta qiziqish uyg‘otdi.
- hozirgi kunda xalqaro mamlakatlarning yechimini topish jarayonida ikki mamlakat qarashlarining o‘zaro o‘xshashligi O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi davlatlararo munosabatlarning rivojlanishiga muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.
- Hindiston ko‘plab muslimmonlar, shuningek, bizning avlodlar yashaydigan mamlakatdir. Dinni niqob qilib olgan dinniy ekstremizm va xalqaro terrorizmning xavfi kuchayib borayotgan hozirgi taxlikali zamonda bu aloqalarni rivojlantirish favqulotda katta ahamiyatga ega.
- Hindiston ilg‘or texnologiyalarga asoslangan keng tarmoqli sanoat infratuzilmasi hamda iqtisodiy taraqqiyot yo‘lida erishgan yutuqlari rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan, O‘zbekiston uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

- Hindiston xalqining hozirga qadar saqlanib qolgan qadimiy madaniy-tarixiy an'analari uning umuminsoniy qadriyatlariga sodiq ekanidan dalolat beradi. Hindiston xalqiga xos bunday fazilatlar bilan uzoq asrlik tarix va madaniyatga ega bo'lgan o'zbek xalqining urf-odat va an'analari o'rtasida yaqinlik, umumiylit mavjudligini ham ta'kidlab o'tish lozim. Ikkala davlat xalqlari o'rtasidagi ma'naviy yaqinlik va o'ziga xos jihatlarni inobatga olgan O'zbekiston rahbariyati Hindiston bilan madaniyat, ilm-fan, ta'lim, turizm va boshqa gumanitar sohalardagi hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan besh omillar O'zbekistonning Janubiy Osiyodagi yetakchi davlatlardan biri bo'lmish Hindiston bilan o'zaro manfaatli va teng huquqli aloqalarni rivojlantirishdan manfaatdor ekanligidan dalolat beradi.

O'z navbatida yosh mustaqil O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosiy strategiyasiga xos xususiyatlar Hindiston davlatida mamlakatimiz bilan hamkorlik aloqalari o'rnatishda katta qiziqish uyg'otdi. Shuning uchun ham Hindiston O'zbekiston mustaqilligini dastlabki kunlaridanoq tan olganligi, o'zaro munosabatlarga katta e'tibor qaratganligi diqqatga sazovordir.

Jahon tajribalaridan ma'lumki, mamlakatlar o'rtasida aloqalarni yo'lga qo'yish davlat rahbarlarining rasmiy uchrashuvlari va bu jarayonda imzolangan shartnomalar nihoyatda muhimdir. O'zbekiston va Hindiston davlat rahbarlarining bir qancha uchrashuvlari bunga misol bo'la oladi. O'zaro munosabatlarda iqtisodiy yo'nalishdagi, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, neft-gaz, mashinasozlik, to'qimachilik kabi sohalardagi hamkorlikni kengaytirish ustuvor yo'nalishlardandir. O'zbekiston bilan Hindiston o'rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlik, sarmoyalarni himoyalash va rag'batlantirish, ikki tomonlama soliqdan qochishga oid bitimlar amal qiladi.

O'zbekiston bilan Hindiston o'rtasidagi aloqalar mustaqillikdan oldin ham ancha rivojlangan edi. O'zbekiston mustaqillikka erishgan keyin bu aloqalar yangi bosqichga ko'tarildi. Ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanishida O'zbekiston birinchi Prezidenti I.Karimovning mustaqillik arafasidagi

Hindistonga tashrifi katta ahamiyatga ega bo‘ldi. O‘zbekiston rahbari sho‘rolar zamonidagi mavjud tamoyillarni buzib, Hindiston bilan mustaqil hamkorlikni kengaytirishga birinchi bo‘lib kirishdi. Natijada Hindiston bilan O‘zbekiston o‘rtasida birinchi marta teng huquqli mamlakatlar kabi iqtisodiy, savdo, ilmiy-texnikaviy, madaniyat, sog‘liqni saqlash, fan, texnika, turizm, sport va ommaviy axborot sohasida hamkorlik qilish to‘g‘risida bitimlar tuzilgan. Hindiston yordami bilan Toshkent, Buxoro va Samarcandda zamonaviy mehmonxonalar qurildi. Respublikamizga uskunalar va boshqa xil tovarlar xarid qilish uchun 1993-yilda Hindiston 10 mln dollar mablag‘ ajratdi. 1993-yil may oyida Hindiston Bosh vaziri Narasimxa Rao O‘zbekistonga rasmiy tashrif buyurdi⁶¹. Oziq-ovqat, yengil sanoat, zargarlik buyumlari ishlab chiqarish, havo yo‘llarini ochish, yangi zamonaviy mehmonxonalar qurish bilan shugullanuvchi hind-o‘zbek qo‘shma korxonalari ochish haqida 10 ta bitim tuzildi. Bundan tashqari, hind firmalari respublikamizdagi sheriklari bilan jami 100 mln dollarlik mahsulot berish bo‘yicha 15 ta savdo shartnomasiga imzo chekdilar. O‘zbekistonda dori-darmon ishlab chiqarishda hindlar katta yordam ko‘rsatmoqda. Buning uchun Surxandaryoda maxsus qo‘shma korxona tashkil etildi.

O‘zbekiston Hindistonga xizmatlar, paxta va ko‘nchilik xomashyosi, oziq-ovqat mahsulotlari, qurilish materiallari, rangli metallar eksport qiladi. Hindistondan O‘zbekistonga farmatsevtika mahsulotlari, mexanik va elektron uskunalar, optik asboblar, oziq-ovqat mahsulotlari, plastmassa va plastmassadan tayyorlangan mahsulotlar import qilinadi. O‘zaro savdoda eng ko‘p qulaylik yaratish tartibi joriy qilingan. 1992-yil o‘zaro tovar aylanmasi 100 million dolarni tashkil etdi⁶².

Davlatimiz rahbari I.Karimovning 2005-yili Hindistonga davlat tashrifi doirasida boshqa hujjatlar qatorida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida hamkorlik to‘g‘risida hukumatlararo bitim imzolandi⁶³. Muzokaralar davomida tomonlar davlatlar o‘rtasidagi bugungi savdo-sotiq munosabatlari, uning istiqbolli

⁶¹ Lafasaov M. Jahon tarixi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. Toshkent, 2011.

⁶² Xalq сўзи. 1993 йил 7 май.

⁶³ Xalq сўзи. 2005 йил 6 апрель

yo‘nalishlari axborot texnologiyalari farmatsevtika sohalariga alohida e’tibor qaratishdi. 2004-yilning o‘n bir oyi mobaynida ikki davlat tovar yirboshlash 121 million dollarga teng bo‘lganligini qayd etishdi⁶⁴. Davlatimiz 1996-yili o‘zining avtomobil sanoatiga ega bo‘ldi. Dastlabki davrlardan boshlab mana shu sanoat tarmoqlarini mahalliylashtirish ishlari jadal olib borilmoqda. Shu maqsadda Hindistonning mashhur “Ashok Minda Group” kompaniyasi O‘zbekistonda yengil avtomobillar uchun uskunalar panellari ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish niyatida 2009-yilda 25 million dollarga yaqin mablag‘ bilan Navoiyda qo‘shma korxona ochishni maqsad qildi. Bu qo‘shma korxonada dastlab “Damas” va “Neksiya” uchun detallar yetkazib bergen bo‘lsa, hozirda barcha turdagи yengil avtomobillar uchun detallar tayyorlanmoqda. Bundan tashqari, 2011-yil yakunida O‘zbekistonga 88 million sarmoya kiritgan “Spentex” hind tekstil kompaniyasi muvaffaqiyatlι hamkorligimizning yaqqol misoli bo‘la oladi. Teri oshlash va tog‘-kon sanoati hamda farmatsevtika sohalarida “Lupin”, “Himalaya” kabi hind kompaniyalari bilan aloqalar olib borildi⁶⁵.

Mamlakatimiz “Novafarm”, “Ultra Hels Kear”, “Vell Med Farm” va “Gufik-Avitsenna” kabi farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarishga qaratilgan qo‘shma korxonalar faoliyat olib bormoqda. “Gufik-Avitsenna” 1997-yili Hindistonning “Gufik Limited” farmatsevtika korxonasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan. Bugungi kunda ushbu korxona 20 dan ortiq dori vositalarini ishlab chiqaradi. Bir yil davomida 210 million dona tabletka, 75 million dona kapsula ishlab chiqaradi⁶⁶.

2010-yilda mamlakatlarimiz o‘rtasidagi tovar ayriboshlash hajmi 150 million dollarni tashkil qildi⁶⁷. Mamlakatimizda o‘sha yilda hind sarmoyadorlari ishtirokida tuzilgan 62 qo‘shma korxona faoliyat ko‘rsatdi. Mazkur mamlakatning 18 firma va kompaniyasi yurtimizda o‘z vakolatxonasini ochgan. Ular asosan to‘qimachilik, oziq-ovqat sanoati, farmatsevtika, sayyohlik, qishloq xo‘jaligi,

⁶⁴ Ўша маңба.

⁶⁵ www.uzreport.uz. O‘zbekiston-Hindiston: umumiy manfaatlar.

⁶⁶ www.uzreport.uz. “Gufik-Avitsenna” QK 20 dan ortiq dori-darmon vositalarini ishlab chiqaradi.

⁶⁷ www.zyonet.uz. Ўзбекистон ва Хиндистон бугунги кунда.

qurilish, savdo va xizmat ko'rsatish kabi sohalarga ixtisoslashgan⁶⁸. Mamlakatlarimiz o'rtasida texnikaviy sohadagi hamkorlik, jadal rivojlanmoqda. Hindiston texnikaviy-iqtisodiy hamkorlik dasturi (ITEC) doirasida o'zbekistonlik mutaxassislar axborot texnologiyalari, suv resurslarini boshqarish, bank ishi, menejment, mehmonxona biznesi kabi sohalarda Hindistonning nufuzli oliy ta'lim muassasalarida malaka oshirmoqdalar. O'zbekiston Respublikasi bilan Hindiston Respublikasi o'rtasida tuzilgan savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiya barcha sohalarda ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2010-yilning 2-martida poytaxtimizda o'tkazilgan O'zbekiston va Hindiston ishbilarmon doiralarining biznes-forumida ikki mamlakat o'rtasida savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlikni yanada rivojlantirish, Hindiston kompaniyalarini mamlakatimizdagi xususiylashtirish jarayoniga keng jalb etish, "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasida qator qo'shma loyihalarni amalga oshirishga oid masalalar atroflicha muhokama qilindi. Muntazam o'tkaziladigan bunday forumlar o'zaro savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlikni yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Ikki mamlakat o'rtasida yoqilg'i-energetika, konchilik, geologiya, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik kabi sohalardagi hamkorlikni yanada mustahkamlash maqsadida ko'plab forum va seminarlar, ko'rgazma va yarmarkalar, taqdimotlar o'tkazilmoqda. 2010-yilning mart oyida Toshkentda o'tgan Hindiston Respublikasining xalq iste'moli mahsulotlari "India Exhibition – 2010" ko'rgazmasi samarali bo'ldi⁶⁹.

Mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan islohotlar berayotgan yuksak samaralar, yurtimiz siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga oid muhim yangiliklar Hindiston ommaviy axborot vositalari tomonidan muntazam yoritib boriladi. Xusan, Hindiston-MDH savdo-sanoat palatasi jurnalida 2010-yilning may oyida poytaxtimizda o'tkazilgan Osiyo taraqqiyot banki (OTB)

⁶⁸ O'sha saytdan.

⁶⁹ www.ziyonet.uz.

Boshqaruvchilar kengashining 43-yillik majlisi keng yoritildi⁷⁰. Jurnalning 2010-yil iyun oyidagi sonida Hindiston-MDH savdo-sanoat palasasi prezidenti Rajan Madxu tabiiy resurslarga boy qulay sarmoyaviy muhitga ega O‘zbekiston muvaffaqiyatli biznes yuritish uchun eng maqbul mamlakat ekanini qayd etib, O‘zbekiston bilan Hindiston o‘rtasidagi tarixiy munosabatlar ikki mamlakat ishbilarmonlari hamkorligini rivojlantirishda muhim omil bo‘lishini alohida ta’kidlagan.

Hindiston jahonda jadal rivojlanayotgan mamlakatlardan biridir. Hindistonda kuchli industrial baza yaratilgan va katta ilmiy-texnikaviy salohiyat mavjud. Ayniqsa, axborot texnologiyalari, tibbiyat, farmatsevtika, yengil sanoat kabi yo‘nalishlarda ulkan yutuqlarga erishilmoqda⁷¹.

2014-yil natijalariga ko‘ra, ikki davlat o‘rtasidagi tovar ayrboshlash 315,9 million AQSh dollarini tashkil qildi. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo vazirligida Hindistonning farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish va savdo sohasida faoliyat yuritadigan 18 ta kompaniya va tashkilotlarining vakolatxonalari ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Ikki davlat o‘rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlik, sarmoyalarni himoya qilish va rag‘batlantirish, ikki tomonlama soliqqa tortishdan qochishga oid bitimlar imzolangan. Savdo va iqtisodiy hamkorlik to‘g‘risidagi bitimga muvofiq, o‘zaro savdoda eng ko‘p qulayik yaratish tartibi amal qilmoqda. Hindistondan mamlakatimizga, asosan, farmatsevtika mahsulotlari, organik kimyoviy birikmalar, mexanik uskunalar, qog‘oz va karton, oziq-ovqat mahsulotlari, optik asbob-uskunalar, terini oshlash hamda bo‘yoq ekstraktlari va boshqa mahsulotlar import qilinadi.

Hindiston kompaniyalari mamlakatimiz iqtisodiyotiga katta qiziqish bilan qaraydi. Hindistonlik tadbirkorlar avtomobilsozlik, to‘qimachilik va sayyohlik kabi sohalarga faol sarmoya kiritishga qiziqish bildirayotgani buning yorqin dalilidir.

⁷⁰ O‘sha saytdan.

⁷¹ Ўзбекистонда ижтимоий фан. 2005 йил № 1-2. Б. 60-65.

Hindiston sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar, asosan, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi va teri mahsulotlarini qayta ishslash, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, farmatsevtika, qurilish, sayyohlik, ulgurji va chakana savdo yo'naliшhlarida ish olib bormoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik kabi sohalardagi aloqalarni yanada mustahkamlash maqsadida ko'plab forum va ko'rgazmalar o'tkazilmoqda. Toshkent shahrida 2008-yilning iyulida o'tkazilgan "Hindiston mini-texnologiyalari kichik biznes uchun – India minitech-2008" ko'rgazmasi samarali bo'ldi. Ikki tomonlama munosabatlar 1992-yilda tashkil etilgan savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston-Hindiston hukumatlararo komissiyasi doirasida tartibga solinadi. 1993–2011-yillarda ushbu komissiya to'qqiz marta majlis o'tkazdi. Komissiyaning 2011-yil 4-may kuni Toshkentda bo'lib o'tgan majlisida tomonlar o'zlarini qiziqtirgan iqtisodiy masalalar yuzasidan ko'plab shartnomalarni imzoladilar. 2010-yilning 2-martida poytaxtimizda o'tkazilgan O'zbekiston va Hindiston ishbilarmon doiralarining biznes-forumida ikki mamlakat o'rtaSIDA savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlikni yanada rivojlantirishga, Hindiston kompaniyalarini mamlakatimizdagi xususiy lashtirish jarayoniga keng jalg etishga, "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasida qator qo'shma loyihalarni amalga oshirishga oid masalalar atroflicha muhokama qilindi. Muntazam o'tkaziladigan bunday forumlar o'zaro savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlikni yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda.

2015-yil 6-iyulda yurtimizga Hindiston Bosh vaziri Narendra Modi tashrif buyurdi. I.Karimov va Narendra Modi muzokaralarni ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalari ishtirokida davom ettirdilar. Savdo-iqtisodiy, moliyaviy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirish masalalari muzokaralarning asosiy mavzusi bo'ldi. Savdo-iqtisodiy sohadagi o'zaro hamkorlik masalalari Savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnik hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiya majlislarida muntazam muhokama qilinmoqda. Islom Karimov va Narendra Modi mazkur komissiya o'zaro manfaatli barcha yo'naliшharda oliy darajadagi kelishuvlarni amalga oshirishning samarali

mexanizmiga aylanishi lozimligini ta'kidladilar. Tomonlar har ikki mamlakatning davlat tuzilmalari va xususiy biznes vakillari tovar hamda xizmatlar yetkazib berishni yanada ko‘paytirish va diversifikatsiya qilish, iqtisodiyotning axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalar, farmatsevtika, biotexnologiya, yengil va kimyo sanoati kabi yuqori texnologiyali tarmoqlarida o‘zaro manfaatli qo‘shma korxonalar tashkil etish, shuningdek, uglevodorod konlarini qidirish va qazib olishdan manfaatdor ekanini qayd etdilar⁷². Navoiy, Jizzax va Angrenda yaratilgan erkin iqtisodiy hududlarga hindistonlik ishbilarmonlarni ko‘proq jalb etish, bu yerda yaratilgan imkoniyatlar bilan tanishtirish masalasi kun tartibiga ko‘tarildi. 2014-yilda o‘zaro tovar ayirboshlash ko‘rsatkichi o‘tgan yilgiga nisbatan 21,2 foizga o‘sib, 315,9 million dollarga yetdi. Bu ko‘rsatkich davlatlarimiz salohiyati darajasida emasligi, tovar ayirboshlash hajmini yanada oshirish va mahsulot turlarini diversifikatsiya qilishga, jumladan, savdo yarmarkalari va boshqa tadbirlar orqali biznes vakillarining aloqalarini faollashtirishga kelishdilar⁷³.

Muxtasar qilib aytganda, O‘zbekiston-Hindiston iqtisodiy hamkorligi asriy an’analarga asoslangan holda o‘zaro do‘stlik ruhida davom etib kelmoqda. Xitoy davlati bilan solishtirganda nisbatan kamroq ko‘rsatkichga ega ekanligining assosiy sabablaridan biri mintaqadagi notinch Afg‘oniston bilan bog‘liqligi bo‘lib qolmoqda. Ikki davlat ham juda katta iqtisodiy salohiyatga ega ekanligini yuqoridagi raqamlar orqali ko‘rdik. Kelajakda iqtisodiy sohada hamkorlikni rivojlantirish uchun mahsulotlar turi va sifatini yaxshilash, yangi mahsulotlar liniyasini ochish, bojxona ta’riflari va hujjatlarini qayta ko‘rish va soddalashtirish va albatta tayyor mahsulot eksportiga ko‘proq urg‘u beril-sa, har ikki mamlakat sanoati uchun albatta foydali bo‘lar edi.

⁷² Old.presenter.uz.O‘zbekiston-Hindiston: hamkorlikni rivojlantirishning yangi imkoniyatlari.

⁷³ O‘sha saytdan.

III BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XITOY VA HINDISTON BILAN MADANIY-MA'RIFIY, ILM-FAN, TURIZM VA BOSHQA SOHALARDA HAMKORLIGI.

3.1. O'zbekiston Respublikasining Xitoy bilan madaniy, ilm-fan, turizm va boshqa sohalarda o'zaro hamkorligi

O'zbekiston – Xitoy munosabatlarini Buyuk ipak yo'lida faoliyat ko'rsatgan savdogarlar qadimdan ikki mamlakat o'rtaсидаги madaniy aloqalarning tashuvchisi bo'lganlar. Bizning hududdan Xitoya, yoki aksincha, ko'plab ilm-fan yutuqlari almashinib, madaniy aloqalar barqaror rivojlanib kelgan. Hindistonda paydo bo'lgan buddaviylik dini Kushonlar davrida Sharqiy Turkiston, Yettisuv orqali Xitoya, keyinchalik esa butun Sharqiy Osiyoga tarqalgan. O'rta asrlardagi "Choch raqsi" xitoylik davlat amaldorlarini o'ziga rom etgani manbalardan ma'lum. Lekin, keyingi davrda dunyo miqyosida siyosiy o'zgarishlar sababli madaniy aloqalarning bunday usuli zamon talablariga javob bermay qoldi. Mustaqillikgacha bo'lgan davrda ham O'zbekiston Xitoy bilan madaniy sohalarda hamkorlik olib borgan. 1950-yildan O'zbekiston Xitoyning Sinszyan-Uyg'ur muxtor respublikasiga kadrlar tayyorlash, mahalliy aholini uyg'ur, qozoq tillaridagi adabiyot va o'quv kitoblari bilan ta'minlash, tibbiy yordam ko'rsatish, yer osti boyliklarni aniqlash, irrigatsiya tizimini yaxshilash bo'yicha katta yordam ko'rsatdi. Adabiyotlar nashr qilish uchun Toshkentda maxsus tahririyat, kadrlar tayyorlash uchun O'rta Osiyo davlat universitetida maxsus kafedra tashkil etildi. 1978-yildan O'zbekiston talabalari Xitoya til o'rganish uchun yuborildi⁷⁴.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin O'zbekiston va Xitoy o'rtaсидаги madaniy sohalardagi aloqalar, xuddi siyosiy va iqtisodiy aloqalar kabi o'zaro tenglik va do'stlik asosida olib borilmoqda. Bunga ikki davlat o'rtaсидаги ko'p ming yillik do'stona aloqalar asos bo'ldi.

Dastlab, O'zbekiston va Xitoy o'rtaсидаги iqtisodiy jihatdan boshlangan do'stlik aloqalari keyinchalik madaniy sohalarga ham ta'sir etmasdan qolmadi. Ikki mamlakat o'rtaсида madaniyat, fan, texnika va ta'lim sohasida ham hamkorlik

⁷⁴ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т. 9. 2005. Б. 427-438.

rivojlanmoqda. Xitoy vakillari Samarqandda o‘tkaziladigan, “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalida, O‘zbekiston folklor jamoalari Pekinda har yili o‘tadigan xalqaro madaniyat va turizm festivalida muntazam ishtirok etib kelishmoqda. Ikki tomonlama madaniy munosabatlarni mustahkamlashda 1998-yil tashkil qilingan “O‘zbekiston – Xitoy” va 2007-yil o‘z faoliyatini boshlagan “Xitoy Xalq Respublikasi – Markaziy Osiyo mamlakatlari” do‘stlik jamiyatlari muhim ahamiyat kasb etmoqda⁷⁵. 1996-yil Pekinda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi o‘rtasida o‘zaro hamkorlik to‘g‘risida, 2000-yil Toshkentda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi bilan XXR Ijtimoiy Fanlar Akademiyasi o‘rtasida bitim imzolandi. 1997-yil I.Karimovning “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asari Xitoyda xitoy tiliga tarjima qilinib chop etildi. Shu yil O‘zbekistonga bag‘ishlangan maxsus jurnal va 2004-yil kitob nashrdan chiqdi. Ikki davlat o‘rtasida mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish borasida Toshkent–Shanxay, Navoi–Chjuchjou (Xunan provinsiyasi), Samarqand–Sian (Shensi provinsiyasi) shaharlari, Toshkent – Xunan, Samarqand va Shensi viloyatlari o‘rtasida birodarlik munosabatlari o‘rnatilgan⁷⁶. 2000-yilda ilmiy-texnika hamkorligi bo‘yicha maxsus qo‘mita tashkil etilgan. 2001-yil Toshkentda Xitoy madaniy markazi tashkil topdi. 2002-yilda Toshkentda “XXR fani va texnikasi kunlari” deb nomlangan ko‘rgazma bo‘lib o‘tdi. 2003-yil Chanchun shahrida Kamoliddin Behzod, Shanxay shahrida A.Navoiy haykali o‘rnatildi. 2004-yilda Pekinda O‘zbekiston–XXR munosabatlariga bag‘ishlangan ilmiy anjuman, Toshkentda xitoy madaniyati kunlari o‘tkazildi. Ikki davlat o‘rtasida talabalar almashuvi ham amalga oshirilmoqda. 2004-yil iyunda O‘zbekiston Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan Xitoy ta’lim vazirligi o‘rtasida Toshkentda xitoy tilini o‘rganish bo‘yicha Konfutsiy nomidagi bitim imzolandi. 2005-yil may oyidan Toshkentda xitoy tili va madaniyatini o‘rganish bo‘yicha Konfutsiy instituti faoliyat yuritib kelmoqda va hozirgi kunga kelib bu dargohda 350 dan ziyod tinglovchilar, talabalar, savdogarlar

⁷⁵ www.mfa.uz. O‘zbekiston-Xitoy munosabatlari.

⁷⁶ O‘sha joyda.

va ilmiy izlanuvchilar tahlil olishmoqda. Institut tashkil qilinganidan beri 2,5 mingdan ortiq kishi o‘quv kurslaridan o‘tdi⁷⁷.

2004-yildan O‘zbekiston va XXRning Sinszyan-Uyg‘ur muxtor o‘lkasi televideniye kompaniyalari o‘rtasida hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Toshkent telestudiysi XXR haqida, Urumchi telestudiysi O‘zbekiston haqida ko‘rsatuvlar olib bormoqda⁷⁸. 2013-yil sentabr oyidagi XXR raisi Si Szinpinning O‘zbekistonga davlat tashrifi doirasida Samarqand shahrida yana bitta Konfutsiy institutini tashkil etish bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risida bitim imzolandi.

Ikki tomonlama kelishuvga muvofiq va ShHT doirasida XXR hukumati 2014–2015-o‘quv yilida o‘zbekistonlik 120 talaba va stajyorga grant ajratdi. Konfutsiy nomidagi institut orqali Lanchjou universitetida o‘zbekistonlik 50 ga yaqin talaba tahsil olmoqda. 2012–2013-o‘quv yilidan boshlab Pekin chet tillar universitetida o‘zbek tili o‘qitilishi yo‘lga qo‘yildi⁷⁹.

2013-yil 15-may kuni Xitoyda birinchi marta Shanxay universiteti huzuridagi ShHT xalq diplomatiyasi ilmiy tadqiqot instituti negizida “O‘zbekiston tadqiqotlari va ta’lim almashuvlari markazi” ochildi⁸⁰.

2013-yil noyabr oyida tomonlar o‘rtasida 2014-2017-yillarga mo‘ljallangan madaniy hamkorlikka oid dastur qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy o‘rtasida doimiy madaniy-ma’rifiy, kino kunlari muntazam o‘tkazib kelinadi. Jumladan, ikki davlat o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatalganiga 20 yil to‘lishi munosabati bilan yurtimizning Toshkent va Samarqand shaharlarida Xitoy madaniyat kunlari o‘tkazildi. Samarqandda Hamid Olimjon nomidagi viloyat musiqali drama teatrida Xitoyning Bondu o‘lkasi, “Xan Shin” ansabli konserti namoyish etildi. Toshkent Fotosuratlar uyida 23-oktabr kuni Shanxay: Sharq durdonasi–Toshkent bilan birodarlashgan shahar fotoko‘rgazmasi ochildi. Ushbu tadbirda Shanxay shahri manzarasini ifoda etuvchi 120 ga yaqin fotosurat namoyish etildi.

⁷⁷ www.mfa.uz. O‘zbekiston-Xitoy munosabatlari.

⁷⁸ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т. 9. 2005. В. 427-438.

⁷⁹ www.mfa.uz. O‘zbekiston-Xitoy munosabatlari.

⁸⁰ O’sha joyda.

Xitoy va O'zbekiston qadimiy tarixga ega va madaniyati boy mamlakatlardir. Gumanitar aloqalar hamisha Xitoy-O'zbekiston munosabatlarining muhim tarkibiy qismi bo'lib kelgan. So'nggi yillarda talabalar almashish, xitoy tilini o'qitish, mintaqalararo aloqalar, qo'shma arxeologik ekspeditsiyalar o'tkazish, badiiy asarlarni ikki tilga o'girish bo'yicha yangi yutuqlarga erishildi. Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib Toshkentda ochilgan Konfutsiy instituti hozirgi kungacha 3 mingdan ortiq mutaxassis yetishtirdi. Xitoy qadimgi madaniyat yodgorliklari ishlari bo'yicha davlat boshqarmasi, Xitoy ijtimoiy fanlar akademiyasi, Xitoy shimoli-g'arbiy universiteti o'zbekistonlik hamkasblari bilan arxeologik tadqiqotlar olib borish va tarixiy obidalarni ta'mirlash bo'yicha hamkorlikda ishlar moqdalar. Buyuk ipak yo'lining asl ko'rinishini qayta tiklashga harakat qilmoqdalar. Aynan mana shu hamkorlik mahsuli sifatida arxeolog Boqijon Matboboyev xitoylik hamkorlar bilan birgalikda Farg'ona vodiysida Mingtepa shahri xarobalarini oolib o'rgandilar. Qadimgi Dovon davlati poytaxti Ershi aynan mana shu Mingtepani o'rnida bo'lganligi taxmin qilingan edi. Ochiq osmon ostidagi muzeyga aylanishi kutilayotgan ushbu yodgorlik kelajakda vodiyda turizm sohasini rivojlanishiga asos bo'lsa ajab emas.

Tomonlar turizm sohasidagi hamkorlikka alohida e'tibor qaratmoqda. 2010-yildan O'zbekiston Respublikasiga Xitoy fuqarolarining guruh bo'lib sayohat qiladigan turistik mamlakat maqomini berish jarayoni boshlandi.

2013-yil noyabr oyida O'zbekistonga uyushtirilgan Xitoy Xalq Respublikasi Davlat kengashi Bosh vaziri Li Ketsyanning rasmiy tashrifi davomida tomonlar o'rtaida turizm sohasida hamkorlik bo'yicha hukumatlararo bitim imzolandi⁸¹.

Ta'lim sohasida hamkorlik masalalarini muhokama qilish maqsadida 2004-yil 25-fevralidan 2-martigacha O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi boshchiligidagi O'zbekiston oliy o'quv yurtlari rektorlaridan iborat delegatsiya Xitoyda bo'ldi⁸².

⁸¹ www.mfa.uz. O'zbekiston-Xitoy munosabatlari.

⁸² Халқ сўзи. 2004 йил, 12 март.

O‘zbek delegatsiyasi Xitoya qilgan tashrifida ikki davlat oliy o‘quv yurtlari o‘rtasidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri munosabatlarni tashkil etish va mustahkamlash haqidagi masalalar bo‘yicha va Xitoyning yetakchi oliy o‘quv yurtlari –Sinxua universiteti, Pekin aloqa universiteti, Pekin tillar va san’at universiteti va Shanxay universiteti boshqarmalari bilan uchrashuvlar bo‘ldi.

Uchrashuvlar mobaynida asosiy diqqat Xitoydagi masofaviy o‘qitish va axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash borasidagi masalalarga qaratildi. O‘zbek delegatsiyasi aytib o‘tilgan sohalardagi Xitoy oliy o‘quv yurtlarining yutuqlari, boshqa oliy o‘quv yurtlari va yetakchi oliy o‘quv yurtlari o‘rtasida bilim va malaka almashish tajribalari, Xitoy fuqarolarini jalb qilish malakasi, chet el oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilari, XXRdagи ilmiy ishlar bilan tanishtirildi. Shuningdek, kelajakda telekommunikatsiya va axborot texnologiyasi sohasida mutaxassis bo‘lmoqchi bo‘lgan ikki davlatlar talabalarining fikr almashtirishni tashkil etish va rivojlantirish borasidagi masalalar ham ko‘rib chiqildi. Uchrashuvlar natijalari o‘laroq, quyidagilarga erishildi: telekommunikatsiya va axborot texnologiyalari sohasidagi hamkorlik ko‘zda tutilgan Pekin aloqa universiteti, Shanxay universiteti va Toshkent axborot texnologiyalari universiteti o‘rtasida hujjatlar imzolandi, hamkorlikda ilmiy tajribalar o‘tkazish va malaka almashish, hamda o‘zaro hamkorlik asosida yuqorida takidlangan o‘quv yurtlari talabalarni almashishga erishildi.

Shuningdek, davlatlarimiz ShHT tashkiloti doirasida ham madaniy aloqalarni olib bormoqda. Jumladan, poytaxtimizda 2006-yil 27-aprel kuni Shanxay hamkorlik tashkilotiga (ShHT) a’zo mamlakatlar madaniyat vazirlari kengashining majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vaziri A.Azizzoxa‘jaev, Qozog‘iston Respublikasi madaniyat va axborot vaziri E.Ertisbaev, Xitoy Xalq Respublikasi madaniyat vazirining o‘rnbosari Men Syaosi, Qirg‘iziston Respublikasi madaniyat vaziri S.Rayev, Rossiya Federatsiyasi

madaniyat va ommaviy kommunikatsiyalar vazirining o'rribbosari D.Amuns, Tojikiston Respublikasi madaniyat vaziri R.Amirovlar ishtirok etdi⁸³.

ShHTga a'zo davlatlar rahbarlari nafaqat o'zaro siyosiy va savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, balki tashkilot doirasida ijtimoiy-madaniy aloqalarni kengaytirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratdilar. Zero, madaniy aloqalar xalqlar o'rtasidagi munosabatlarni belgilovchi eng asosiy omillardandir. Hamkorlikda tashkil etiladigan turli ko'rgazmalar, festivallar, anjuman va simpoziumlar mazkur xalqaro tashkilot muhitida yashovchi xalqlarning bir-birini yaqinroq tanishi uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Buning natijasida davlatlararo munosabatlarning poydevori yanada mustahkamlanadi.

Ma'lumki, ShHT doirasida mazkur tashkilotga a'zo mamlakatlar xavfsizlik kengashlari kotiblarining, tashqi ishlar va mudofaa idoralari rahbarlarining, iqtisodiyot, savdo-sanoat va moliya vazirlarining, madaniyat vazirlarining kengashlari faoliyat yuritadi.

Madaniyat vazirlari kengashining Toshkentda o'tgan galdagi majlisida ShHT doirasida madaniy sohadagi hamkorlikning bugungi ahvoli va istiqboliga oid masalalar muhokama etildi. Ishtirokchilar bu yo'nalishdagi aloqalarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish uchun imkoniyatlar ko'pligini, tashkilotga a'zo mamlakatlar xalqlarining boy madaniyati va rang-barang san'atining o'zaro targ'iboti birqalikdagi sa'y-harakatlarni yanada faollashtirishni taqozo etayotganini ta'kidladilar.

Kengash qatnashchilari ShHT mamlakatlari o'rtasida ko'p tomonlama madaniy hamkorlik bo'yicha 2007–2008-yillarga mo'ljallangan rejaning ijrosi hamda joriy yil iyunda Xitoyda ShHTga a'zo mamlakatlarning ikkinchi san'at festivalini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishning borishiga oid masalalarni muhokama qildilar. ShHT doirasidagi madaniy hamkorlik izchil rivojlanib borayotgani ta'kidlandi. Xususan, a'zo davlatlar o'zaro madaniyat kunlarini o'tkazishi, ShHT doirasidagi xalqaro festivallarda faol qatnashishi an'anaga aylanib bormoqda.

⁸³ Халқ сўзи. 2006 йил, 27 апрель.

Jumladan, 2005-yil avgustda Samarqand shahrida o‘tgan “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivaliga ShHTga a’zo barcha mamlakatlardan vakillar kelib, o‘z milliy san’atini namoyish etdi⁸⁴.

Majlis qatnashchilari mo‘yqalam sohiblari, milliy raqs va musiqa ustalari, teatr jamoalari o‘rtasidagi bevosita aloqalarni rivojlantirish va rag‘batlantirish, madaniy aloqalarni rivojlantirishda sayyohlik sohasi imkoniyatlaridan kengroq foydalanish imkoniyatlarini ham ko‘rib chiqdilar.

Birinchi prezidentimizning 2014-yil 19-20-avgust kunlari Xitoya navbatdagi tashrifi doirasida madaniy hamkorlik haqida bir qancha fikrlar almashindi. I.Karimov Shensi provinsiyasidagi qadimgi Sian shahriga tashrif buyurdi. Mazkur shaharning tarixi 3000 yildan oshadi. Ushbu shahar Xitoy imperatorlarining 13 sulolasi davrida poytaxt maqomida bo‘lgan. Buyuk ipak yo‘lining muhim chorrahalarida joylashgan ushbu shaharga imperator Sin Shixuandining terrakota armiyasi bilan dafn etilgan maqbarasi bor. Prezidentimiz Sian shahrining diqqatga sazovor tarixiy obidalari, muzey, qadimiy devorlarini kuzatib shaharni Xitoyning eng diqqatga sazovor shaharlaridan biri ekanligini ta’kidladi. Tantanali ravishda Sian shahrining ramziy kaliti ham taqdim etildi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, XXR raisi Si Szinpinning 2013-yil sentabr oyida O‘zbekistonga davlat tashrifi chog‘ida Samarqand va Sian o‘rtasida birodarlik aloqalari o‘rnatish to‘g‘risida fikr bildirilgan edi. I.Karimov Shensi provinsiyasi partiya qo‘mitasi kotibi Xalq vakillari kengashi raisi Chjao Chjenyun va provinsiya hokimi Lou Sinszyan bilan uchrashib, Samarqand bilan Sian o‘rtasida bevosita hamkorlik aloqalarni rivojlantirish masalalari yuzasidan fikr almashildi. Xitoy raisi Si Szinpinning ona yurti bo‘lgan ushbu shahar bilan ro‘yi zamin sayqali bo‘lgan Samarqand o‘rtasidagi munosabatlarning yangi darajaga ko‘tarilishida va Prezident I.Karimovning Sianni ziyorat qilishda chuqur ramziy ma’no bor. Davlat rahbarlarining o‘zaro ishonchi va hurmati mamlakatlararo hamkorlik aloqalarining yuksak rivoji uchun asos bo‘lib, xalqlarimiz o‘rtasida rishtalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

⁸⁴ Халқ сўзи. 2006 йил 27 апрель.

3.2. O‘zbekiston Respublikasining Hindiston bilan madaniy, ilm-fan, turizm va boshqa sohalarda hamkorligi

O‘zbek va hind xalqlari o‘rtasidagi do‘stlik aloqalari uzoq tarixga ega. O‘zbekiston ham, Hindiston ham qadimiy sivilizatsiya beshiklaridandir. Buyuk ajdodlarimiz Abu Rayhon Beruniy XI asrda ushbu diyorda bo‘lgan, o‘zining mashhur “Hindiston” asarini bu sehrli mamlakatga bag‘ishlagan. Unda hind diyorining tabiati, tarixi, xalqining hayot tarzi, falsafiy-diniy dunyoqarashlari haqida hikoya qilingan. Buyuk shoir va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur esa, XVI asrda “Boburnoma” kitobi bilan butun dunyo uchun Hindistonni yangidan kashf qildi, hind xalqini esa Vatanimizning go‘zalligi, ko‘rku-tarovati bilan tanishtirdi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlar yangi mazmun bilan boyidi, hamkorlik izchil taraqqiyot yo‘liga tushdi.

Hindiston madaniyati o‘zining xususiyatlari, yo‘nalishlari, oqimlari, janrlari, milliy xususiyatlari bilan ajralib tursada, ayrim tomonlari o‘zbek madaniyatiga yaqinligi yaqqol sezilib turadi. Shuning uchun hind san’ati ustalarining O‘zbekistondagi chiqishlari xalqimiz tomonidan har doim katta qiziqish bilan qabul qilinib kelgan va davlatimiz madaniy hayotida katta ahamiyat kasb etib kelgan. Madaniyat va san’at namoyandalaridan iborat delegatsiyalarning muntazam ravishda fikr almashtirib turilishi ikki xalq o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xos xarakterga ega ekanlidigan dalolat beradi.

1991-yilda O‘zbekiston–Hindiston Do‘stlik jamiyati o‘z faoliyatini boshladi⁸⁵. Ma’lumki, 1993-yilda ikki mamlakat o‘rtasida tuzilgan madaniyat sohasiga oid hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo qo‘shma komissiya doimiy faoliyat yuritib kelmoqda. 1998–2010-yillar mobaynida ushbu komissiya 10 ta yig‘ilish o‘tkazdi. 2007-yil oktabr oyida Toshkentda Hindistonning ilmiy-texnologiya ko‘rgazmalari bo‘lib o‘tdi⁸⁶. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil apreldagi Hindistonga tashrifi chog‘ida ta’lim va madaniyat sohasida

⁸⁵ Mfa.uz. O‘zbekiston-Hindiston munosabatlari.

⁸⁶ Фоуров А. Хиндистон. Тошкент. 2010. Б.111.

hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo hujjatlar imzolandi⁸⁷. “O‘zbek turizm” milliy kompaniyasi bilan Hindiston sayyoohligini rivojlantirish kompaniyasi o‘rtasida anglashuv bayonnomasi, Jahon iqtisodiyot va diplomatiya universiteti bilan J.Neru nomli Dehli universiteti hamda Toshkent Sharqshunoslik instituti bilan Mirzo G‘olib nomidagi instituti o‘rtasidagi anglashuv memorandum va Farg‘ona davlat universiteti bilan Hindistoning Kalkuttadagi Mavlono Abdul Kamol Ozod nomli Osiyoni o‘rganish tadqiqot instituti bilan hamkorlik to‘g‘risidagi bitimlar imzolangan⁸⁸.

Ma’lumki, 2005-yil I.Karimov davlat tashrifi bilan Hindistonda bo‘lganlarida, 13 ta hujjat imzolangan edi. Ushbu hujjatlarning 5 tasini ta’lim va madaniyat sohasidagi hamkorlik tashkil etadi. Ta’lim sohasining yuksak ahamiyatini inobatga olgan holda, tomonlar bu yo‘nalishda hamkorlik dasturini ishlab chiqdi va oliy o‘quv yurtlari aloqalariga keng yo‘l ochib berdi. Madaniyat sohasida 2005-2007-yillarga mo‘ljallangan dastur ikki davlat xalqlarini yanada yaqinlashtirishga xizmat qilmoqda⁸⁹.

Hukumatimiz rahbari fan, ta’lim sohalaridagi hamkorlik ham dolzarb ahamiyatga bog‘liqligini e’tiborga olib, tarix va falsafa bo‘yicha qo‘shma ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish, madaniyat va san’at namoyandalarining o‘zaro aloqalarini yanada kengaytirish masalalarini ilgari surdi.

Prezident I.Karimov 2005-yildagi Hindiston safarida “Humoyun” yodgorlik majmuasiga ziyorat qilgani borgan edi. Bunga asosiy sabab ajdodlarimizning hind zaminda qoldirgan ulkan merosi xalqimizning tarixiy mushtarakligidan dalolat berishi, “Toj Mahal” kabi obidalar o‘zbek xalqi uchun ham qadrli va azizligi uchundir albatta. Toshkentda bo‘lib o‘tilgan ko‘plab xalqaro, mintaqaviy simpoziumlar, seminar va anjumanlarda nafaqat faol ishtirokchi, balki tashabbuskor-tashkilotchi sifatida Hindistonning ko‘plab xalqaro va ichki tashkilotlari, fondlari, elchixonasi, madaniy markaz ham faol ishtirok etib kelmoqda. Masalan, 1999–2008-yillarda bunday anjumanlar Toshkentda 8 marta

⁸⁷ Халқ сўзи. 2005 йил 8 апрель.

⁸⁸ Фофуров А. Ҳиндистон. Тошкент. 2010. Б. 113.

⁸⁹ Ўша жойда.

o‘tkazilgan⁹⁰. Shulardan biri 2007-yil aprel oyida bo‘lib o‘tgan Hindistonning “Qishloq va sanoatni rivojlantirish tadqiqot markazi” bilan O‘zbekiston “Mintaqaviy siyosiy fondi” o‘rtasida demokratik rivojlantirish va xavfsizlikni jahon miqyosida ta’minlash bo‘yicha Xalqaro konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Unda Markaziy Osiyo, Buyuk Britaniya, Hindiston, Xitoy, Pokiston, Rossiya, AQSH, Fransiya va O‘zbekistondagi diplomatik korpus vakillari ishtirok etdi. Mazkur konfrensiyada Hindistondan 5 nafar olimlar, Toshkent jahon iqtisodiyoti hamda diplomatiya va xalqaro munosabatlar universiteti xodimlari ham ishtirok etishgan.

Toshkent sharqshunoslik institutida (2006-yil mart), Qarshi davlat universitetida (2007-yil noyabr), Farg‘ona davlat universitetida (2007-yil sentabr), Buxoro va Samarqand shaharlarida Hindiston va O‘zbekiston davlatlari madaniyat, iqtisodiyot, siyosiy munosabatlariga oid ilmiy-amaliy konfederasiyalar va seminarlar bo‘lib o‘tganligini alohida ta’kidlab o‘tish joiz. 2007-yil 13–15-sentabr kunlari Farg‘ona shahrida Hindiston madaniy markazi qoshidagi havaskorlik guruhi konserti bo‘lib o‘tdi. 2007-yilda (sentabr) bo‘lib o‘tgan “O‘zbekiston–Hindiston o‘rtasida rivojlanayotgan hamkorlik munosabatlari” mavzusidagi xalqaro konferensiyaga Hindistonning O‘zbekistondagi muxtor elchisi Skanu Toyal ham tashrif buyurib, ma’ruza qildi. Shunigdek, konferensiyada ellikka yaqin ma’ruzalar tinglanib anjuman materiallari to‘plami nashr qilindi⁹¹.

O‘zbek-hind san’atining, ayniqsa, qo‘shiqchilik va raqs borasidagi yaqinligi, an’anaviy davomiyligi 1997-yilda tashkil etilgan Samarqanddagi “Sharq taronalari” festivalida hindistonlik san’at ustalarining faol ishtiroki bilan ham namoyon bo‘lmoqda. 2007–2012-yillar davomida o‘tkazib kelinayotgan “Sharq taronalari” festivalida hindistonlik san’at ustalari o‘zlarining mumtoz kuy va qo‘shiqlari bilan faol ishtirok etib kelishmoqda. O‘zbekiston Respublikasi va Hindiston o‘rtasida madaniy aloqalarni ikki davlat o‘rtasida madaniyat namoyondalari turli tadbirlar, amaliy va tasviriyl san’at asarlari ko‘rgazmalari

⁹⁰ Фофуров А. Ҳиндистон. Тошкент. 2010. Б.113.

⁹¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Мустақил Ўзбекистон тарихи. 2000. Б. 483.

tashkil etishdagi ishtiroki bilan ham baholash mumkin⁹². Shuningdek, hindistonlik madaniyat xodimlarining kinofestivallar va boshqa madaniy sohalarda tashkil etilib kelinayotgan festivallarda doimiy ravishda ishtirok etishlarini ham alohida ta'kidlash mumkin. Sport sohasidagi aloqalar ham sezilarli darajada faollashmoqda. Hindiston Milliy kurash assotsiatsiyasi samarali ish olib borayotganligini ham alohida ko'rsatish mumkin.

Xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy hayotda "Ma'naviyat va ma'rifat" respublika kengashi va uning tarkibidagi jamoatchilik markazi munosib o'rin egallaaydi. Yosh iste'dodlar o'z ijodlari bilan o'zbek san'atini dunyoga namoyish etmoqda. 2000 yilda Toshkentlik litsey o'quvchisi, yosh rassom Oybek Islomov o'z asarlari bilan Hindistondagi Butunjahon bolalar san'ati qo'mitasi o'tkazgan "Shankar" ko'rgazmasida ishtirok etib, Javoharlal Neru nomidagi oltin medal bilan taqdirlanganligi ham diqqatga sazovordir.

Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti xalqaro miqyosda taninilishiga hamda hukumat tomonidan olib borilayotgan siyosatning natijalarini namoyon qilishda hujjatli filmlar muhim ahamiyatga ega. "O'zbekkinoxronik" studiyasi ijodkorlari V.Ishoqov va Sh.Qurbanboyevlar Prezident I.Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida" nomli kitobi asosida olingan "Islom Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida" nomli ko'p qismli hujjatli filmi Yevropa va Osiyoning ko'plab davlatlarida, jumladan, Hindistonda ham namoyish etildi. Hindistonda bo'lib o'tgan taqdimot marosimi o'zbek hujjatli filmlarining mazkur davlatdagi dastlabki madaniy tadbiri edi⁹³.

Mustaqillik yillarda munosabatlarning yangi yo'nalishi shaxsiy tashabbuslar orqali madaniy aloqalar o'rnatish yo'lga qo'yildi. O'zbekiston-Hindiston davlatlari madaniy aloqalari rivojida mumtoz musiqa va qo'shiqchiligi namoyandalarining ham o'rni beqiyos. Mustaqillik yillarda Hindistonga qilingan san'atkorlarimizning xizmat safarlaridagi konsert dasturlari o'zining takrorlanmasligi, o'ziga xos

⁹² Жамият ва бошқарув. 2005 йил № 2. Б 60-65.

⁹³ Асадова Р. Б. Сотрудничество между Узбекистаном и Индией в области экономики и культуры: исторические основы и современное состояние (1991-2001 гг). Автореф. дис.. канд. ист. Наука. – Ташкент. 2007.

qirralari bilan Hindiston xalqi ixlosmandlarini hayratga soldi. Ular orqali Sharq musiqasi ixlosmandlri o‘zbek mumtoz musiqasi bilangina tanishib qolmasdan, musiqiy asboblar, ularning ohangi va chalinish uslublari bilan yaqindan tanishdilar.

Hindiston san’at ustalarining uzliksiz ravishda “Sharq taronalari” festivalida ishtirok etishmoqda.

Tadqiqot natjalari ikki mamalakat xalqlarining madaniyat, sport, turizm fan va ta’lim sohasidagi ko‘p qirrali hamkorlik aloqalari O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi davlatlararo munosabatlarning mustahkamlanishiga munosib hissa qo‘shib kelayotganini ko‘rsatadi.

O‘tgan asrning 60-yillaridan boshlab Hindiston va O‘zbekiston olimlari o‘rtasida mustaqil aloqalar o‘rnatish bo‘yicha “Markaz”ning ruxsati berilgandan so‘ng, ilmiy hamkorlikning barcha sohalari bo‘yicha aloqalar o‘rnatila boshlandi. Toshkent davlat universiteti Sharqshunoslik fakultetida hind filologiyasi kafedrasи ochilib, talabalarga hind tillari, urdu, bengal, panjobiy lahjalari o‘rgatila boshlandi. Shuningdek, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutida ham Hindiston tarixini yorituvchi manbalar to‘planib, 1957-yilda Hindiston va Pokiston xalqlari tarixi, iqtisodi va madaniyati sektori tashkil qilindi⁹⁴. Institutga Hindistonning yetakchi olimlari tashrif buyurishi bilan davlat arboblaridan J. Neru, Rajendra Prasad, La’l Bahodir Shastri, Indra Gandhi kabilar ham rasmiy davlat tashrifi bilan O‘zbekistonga mehmon bo‘lib kelishgan. Ular institutda Hindiston adabiyot bo‘limi va hind qo‘lyozmalari fondini ko‘rib hayratlanishgan⁹⁵.

XX asrning 50-90-yillari davomida O‘zbekistonda hind yozuvchi va shoirlardan Rabindranat Tagor, Prem Chand, Krishan Chandr, Sajjod Zohid, Amrita Pritam, Ali Sardor Jafriylarning asarlari o‘zbek tiliga o‘girilgan. Shuningdek, o‘zbek mumtoz adabiyotining namoyandalaridan shoira Zulfiyaning “Mushoira” deb nomlangan she’rlar to‘plami, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani hind tiliga, panjob tiliga, Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi”

⁹⁴ Аъзамова С. Обидов Б. Ҳозирги Ҳиндистон. Тошкент. 1991. Б. 56.

⁹⁵ Ўша жойда. Б.57.

romani, Oybekning “Qutlug‘ qon”, G‘ofur Gulomning “Shum bola” asarlari hind tiliga o‘girilib, Hindistonda ko‘plab nusxalarda nashr qilingan⁹⁶. 1983-yilda Hindistonning “Shiriram Bhartiya kala kendra” raqs drama truppasi Toshkentda gastrolda bo‘ldi⁹⁷.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, madaniy-ma’naviy sohada ham tub islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvining o‘zbek xalqining boy madaniy merosi, milliy qardriyatlari, xalqaro munosabatlarning tarixiy tajribasi inobatga olingan. Xalqaro madaniy aloqalarning o‘rnatish ma’suliyati bir qator vazirliklar, idoralar, muassasa, davlat va nodavlat tashkilotlari zimmasiga yuklatilgan. Shu bilan birga, davlatlararo madaniy aloqalarni o‘rnatish hamda rivojlantirish maqsadida mamlakatimiz mahalliy⁹⁸ va xalqaro⁹⁹ institutlari tizimi tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi va Hindiston o‘rtasidagi madaniy aloqalarni rivojlantirishda ushbu davlatda joylashgan “Hind madaniy aloqalar kengashi” (ISSR), “O‘zbekiston-Hindiston do‘stlik jamiyati”, “O‘zbekiston-Hindiston axborot texnologiyalari” markazi va boshqalar ham davlatlar o‘rtasidagi aloqalarning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda.

Hozirgi kunda respublika oliy ta’lim muassasalari xalqaro dasturlarda ishtirok etish bilan birga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy ta’lim muassasalar bilan ham hamkorlik qilib kelmoqda. 1947-yilda Hindiston o‘z mustaqilligini e’lon qilgandan so‘ng, hozirgi Toshkent davlat Sharqshunoslik institutida Janubiy Osiyo tillari

⁹⁶ Ўша жойда. Б. 58.

⁹⁷ Ўша жойда. Б. 59.

⁹⁸ Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Вазирлар Маҳкамасининг 1992 йил 13 январдаги “Республика байналмилад маданий маркази” тўғрисидаги қарори (Вазирлар Маҳкамаси қарорлар тўплами № 1. 43-44 бет) 1992 йил 25 марта “Ўзбекистон Республикаси халқаро маданий-маърифий алоқалар миллий уюшмасини ташкил этиш” тўғрисида (Вазирлар Маҳкамаси қарорлар тўплами № 3 Б. 157.) Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1995 йил 8 ноябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар Вазирлиги ҳузуридаги Ахборот агентлигини ташкил этиш” тўғрисидаги қарори (Вазирлар Маҳкамаси қарорлар тўплами №10 Б. 9) 1996 йил 25 сентабрдаги “Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар Вазирлигига маданият фан ва туризм соҳасида халқаро ҳамкорлик бошқармасини ташкил этиш” тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қарори (Вазирлар Маҳкамаси қарорлар тўплами №9 Б. 91)

⁹⁹ 1994 йил декабрдаги ЮНЕСКО ишлари бўйича “Ўзбекистон Республикаси миллий комиссиясини ташкил этиш” тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қарори (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қарори. № 12 Б. 34.) 1995 йил майдаги “Тошкент шаҳрида халқаро ислом тадқиқот марказини ташкил этиш” тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қарори (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қарори. № 5. Б. 23).

kafedrasiga asos solingan. Shu yildan e'tiboran O'zbekistonda Hindistonning davlat tili-hindiy tili o'qitilib kelinmoqda.

1991-yil O'zbeiston mustaqillagini dunyo hamjamiyati tan olgandan boshlab, O'zbekiston–Hindiston ilm-fan yo'nalishidagi hamkorlik aloqalarida yangi davr boshlandi. Sharqshunoslik institutida o'zbek olimlari bilan bir qatorda hind mutaxassislari J.Sarkor, Qamar Rayis, Tivariy Faruqiy, Xoshimiyy, Suryakumariy, Muhammad Amin kabilar faoliyat yuritib, o'z ma'ruzalari bilan o'zbek talabalariga hind tilini mukammal o'rganishida ko'mak bergenlar. O'zbekistonda ko'p yillar mobaynida hindiy tili ustozni Madan Mo'han Hardat faoliyat ko'rsatgan. O'z o'rnida bu olim xalqlarimiz o'rtasidagi iml-fan aloqalarini rivojlantirish borasida katta xizmatlar qilgan. Qisqa muddatda O'zbekistonda ham hindshunos mutasassislar yetishib chiqdi. R.Qayumov, S.Chernikova, O.Shamatov, T.Holmirzayev, R.G'ulomova, X.Begizova, Sh.Jalilov, A.Aulova, O.Polinova, T.Xo'jayevlar hind tili bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan va ilmiy darajaga erishganlar¹⁰⁰.

Hozirgi kunda kafedra filologiya fanlari doktori, professor O.Shamatov, filologiya fanlari doktori, professor A.Ibrohimov va boshqa hindshunos olimlar faoliyat olib borishmoqda. Salkam 70 yilga yaqin vaqt davomida bu yerda 800 nafarga yaqin mutaxassis kadrlar tayyorlangan. 50 nafarga yaqin bitiruvchi esa, hindshunoslikning dolzab muammolariga bag'ishlangan nomzodlik va doktorlik dissertasiyalarni himoya qilishgan¹⁰¹. Bugungi kunga kelib institut professor-o'qituvchilari tomonidan hindiy tilining muhim yo'nalishlari bo'yicha 10 dan ortiq monografiya, 300 dan ziyod darslik, o'quv-uslubiy qo'llanma va ko'plab ilmiy maqolalar e'lon qilingan¹⁰². Bunga R.Aulovaning "Hindiy tili", R.Muhammadjonovning "Urdu tili", O.Shamatovning "Janubiy Hindiston tili xrestomatiyasi", "Qadimgi hind madaniyatiga oid so'zlar lug'ati", "Hindiy tilining me'yoriy gramatikasi" va kafedra o'qituvchilari tomonidan tuzilgan va

¹⁰⁰ Ўзбекистонда ижтимоий фан. 2005. № 1-2. Б. 60-65.

¹⁰¹ www.gazetabirja.uz

¹⁰² Ўша жойда.

Hindistonda chop etilgan “hindiycha-o‘zbekcha lug‘at” ni ta’kidlash e’tiborga loyiqdir.

O‘zbekistonda hind tiliga ixtisoslashgan bir necha maktablar mavjud bo‘lib, institut olimlari ushbu ta’lim dargohlari uchun hind va urdu tillari bo‘yicha o‘quv dasturlari, turli adabiyotlar yaratish ustida ham ish olib borishmoqda. Yaqinda sharqshunoslik yo‘nalishidagi litsey o‘quvchilari uchun “Hindiy tili” darsligi nashrdan chiarildi. Toshkent davlat Sharqshunoslik institutida bakalavr va magistrler tayyorlash sifatini yanada oshirish, zaruriy o‘quv adabiyotlari bilan ta’minalash borasida qilingan ishlarni ham ta’kidlash lozim. Propessor O.Shamatovning uch qisimdan iborat “Janubiy Osiyo tillariga kirish”, dosent T.Xo‘jayevning “Hindiston xalqlari adabiyoti” kabi risola va o‘quv qo‘llanmalari ham e’tiborga loyiq. O‘tgan davrda Janubiy Osiyo mintaqasi tillarining ilmiy-nazariy o‘rganishiga doir bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Bu ishlar mavzusi an’anaviy tarzda tadqiq etilayotgan Sharq tillari leksikalogiyasi muammolari bilan chambarchas bog‘liq¹⁰³.

Toshkent davlat Sharqshunoslik instituti olimlari ko‘plab xalqaro olmiy anjumanlarda ishtirok etib, O‘zbekiston hindshunoslik maktabi yutug‘larini jahon miqyosida ham namoish qilib kelmoqdalar. Institutning professor-o‘qituvchilaridan O.Shamatov, T.Holmirzayev, A.Ibrohimov, M.Abdurahimovlar Hindiston, AQSh, Angliya, Pokiston, Turkiya kabi davlatlarda bo‘lib o‘tgan konferensiya va ilmiy seminarlarda hindshunoslik bo‘yicha ma’ruzalar o‘qib kelayotganligini alohida qayd etish lozim. O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi madaniy aloqalarni rivojlantirishda Hindistonning Toshkentdagи madaniyat markazining roli, ayniqsa, muhimdir. Bu borada Toshkent Sharqshunoslik instituti o‘qituvchilari markazdagi hindiy tili va hindshunoslik kurslarini olib borishadi. Shu bilan birga, Hindiston elchixonasi va markaz bilan hamkorlikda hind adabiyotini o‘zbek tiliga tarjima qilish, nashr etish bo‘yicha ham katta ishlarni amalga oshirib kelishmoqda. Bunga misol ta’riqasida, qadimgi hind didaktik adabiyoti namunalaridan biri “Huto‘na-desha” yoki ibratlari hikoyalar nomli asar

¹⁰³ Ўзбекистонда ижтимоий фан. 2005 йил №1-2 б 60-65 бет.

A.Ibrohimov tarjimasida chop etilgan “Chiroq yonar tun bo‘yi”, deb nomlangan hind yozuvchilar hikoyalaridan iborat to‘plamni o‘zbek tiliga o‘girish va chop ettirishda institut o‘qituvchilar markazi bilan yaqindan hamkorlik qilmoqda.

Shuningdek, Toshkent davlat Sharqshunoslik institut bilan Hindiston madaniyat markazi tomonidan hind tilini o‘qitilish masalalariga oid xalqaro seminar o‘tkazilib, unda Hindistondan tashrif buyrgan bir guruh olimlar ma’ruza qilishdi. 2011 yilga qadar Toshkent davlat Sharqshunoslik institutiga Hindistonning O‘zbekistondagi elchixonasi tomonidan ikki mingdan ortiq ilmiy, badiiy adabiyotlar hamda kompyuterlar taqdim etilgan¹⁰⁴. Sharqshunoslik instituti qoshida 2008-yilda Maxatma Gandhi nomidagi hindshunoslik ilmiy markazi tashkil etilgan.¹⁰⁵ Ushbu markazning o‘z oldiga qo‘ygan asosiy maqsadi hindshunoslikning dolzarb masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borish, turli xalqaro konferensiyalar o‘tkazish, ikki xalq adabiy aloqalarini yanada rivojlantirish borasida bir qator masalalarga alohida e’tibor qaratiladi.

Jahonning yetakchi davlatlari bilan hamkorlik aloqalari o‘rnatalishi mamlakatimizda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish hamda malakali kadrlar tayyorlash borasida sezilarli natijalarga erishilishiga xizmat qilmoqda. Buni dasturlash bozori yuksak darajada rivojlangan Hindiston bilan aloqalar misolida ham ko‘rish mumkin. Hindiston Respublikasi aloqa va axborot texnologiyalari vazirligi davlat vaziri Sachin Paylot boshchiligidagi delegatsiyasining Toshkentga tashrifi muhim ahamiyatga molik ekanligini alohida takidlash lozim¹⁰⁶. Hindiston aloqa va axborot texnologiyalari vazirligi delegatsiyasi axborot texnologiyalari sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayoni bilan tanishish maqsadida “O‘zbektelekom” AKning telekommunikatsiya va personalni rivojlantirish markaziga tashrif buyurdi. Mehmonlar bu yerdagi ikkita ma’ruza xonasi bilan tanishdilar. Xonalar zamonaviy DWDM texnologiyasi, DATACOM ma’lumotlar uzatish, CDMA va GSM mobil aloqasi standartlari, optik uzatish

¹⁰⁴ www.gazetabirja.uz.

¹⁰⁵ O’sha sayt

¹⁰⁶ Veb sayt. www.Ziyo.Net.Uz.

tizimlari uskunalar bilan jihozlangan. Markazda, shuningdek, barcha kerakli uskunalar bilan jihozlangan xavfsizlik texnikasi bo'yicha mashg'ulotlar o'tkaziladigan xona, videokonferensiyalar va masofaviy ta'lim olib borishga mo'ljallangan konferenszal mavjud. Markaz faoliyati bilan yaqindan tanishgan mehmonlar o'quv xonalari va laboratoriyalarga yuqori baho berishdi. Delegatsiya a'zolari mamlakatimizda dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarish yo'nalishida mutaxassislar tayyorlanishiga alohida e'tibor qaratdilar. Bu borada ularga Yosh dasturchilarni tayyorlash va qo'llab-quvvatlash markazi faoliyati misol keltirildi. Ushbu markazda keng turdag'i IT-trening kurslari taqdim qilingani, ularda oddiy komputer savodxonligidan tortib, tarmoq administratorlari va muhandislari, ma'lumotlar bazasi dasturchilari va boshqa shu kabi sertifikatlashtirilgan mutaxassislargacha tayyorlanishi ta'kidlandi.

Janob Sachin Paylot boshchiligidagi delegatsiyaning tashrifi dasturidan Toshkent axborot texnologiyalari universiteti asosiy o'rinn tutgan edi. Sababi, mazkur universitetda Javaharlal Neru nomidagi O'zbek-Hind axborot texnologiyalari markazi faoliyat ko'rsatadi. Uchrashuv chog'ida martabali mehmon universitet faoliyati bilan tanishtirildi. O'z navbatida, vazir janoblari ushbu yo'nalishda talabalar, professorlar almashish yo'li bilan aloqalarni kengaytirish, hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar o'tkazish borasida ko'mak berishga tayyor ekanligini bildirdi. Mehmonlar, shuningdek, TATU va uning hududlardagi filiallari hamda mamlakatimizning boshqa oliv o'quv yurtlari o'rtasida tashkil etilgan masofaviy ta'lim jarayoni bilan ham tanishdilar. Shu kabi masofaviy darslarni Hindiston o'quv yurtlari bilan ham tashkil etish xohishi bildirildi. TATU qoshidagi O'zbek-Hind axborot texnologiyalari markazi O'zbekiston Respublikasi va Hindiston Respublikasi hukumatlari o'rtasida 2004-yil 29-oktabrda Dehli shahrida imzolangan Memorandum asosida tashkil topgan bo'lib, 2006-yildan o'z faoliyatini boshlagan. Uning ochilish marosimida Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Manmoxan Singx ishtirok etib, nutq so'zlagandi. Jumladan, unda quyidagi so'zlar bor edi: "Zamonaviy texnologiyalar vaqt va masofa borasidagi to'siqlarni olib tashlashga, mamlakatlarning rivojlanish bosqichlarini tezlashtirishga imkon

yaratdi. Aminmanki, mazkur markaz o‘zbekistonlik mutaxassislarga jahon bozorida ishonch bilan raqobatga kirishishlari uchun bilim va ko‘nikmalarni beradi". O‘zbek-Hind markazi faoliyati qisqa vaqt ichida keng qamrovli ishlarni amalga oshirishga erishdi.

2009-yil yanvar oyida A.Navoiy nomidagi opera va balet katta teatr jamoasi Hindistonning Dehli, Mumbay, Haydaraobod, Chinnay shahrlarida gastroli muvaffaqiyatli chiqdi. "Hindiston-MDq" savdo-sanoat palatasi prezidenti Radjay Matxu va "Hindiston-Markaziy Osiyo" Fondi prezidenti Krishnamurti Santxanam o‘z taassurotlari bilan o‘rtoqlashar ekan, ularga "Don Kixot" baleti juda yoqqani ta’kidlashdi¹⁰⁷.

Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, O‘zbekiston va Hindiston davlatlari o‘rtasida ta’lim, ilm-fan va madaniy aloqalar sohasida olib borilayotgan aloqalar yil sayin mustahkamlanib, rivojlanib bormoqda. Bu borada birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning davlat tashriflari davomida ikki mamlakat o‘rtasidagi hamkorlikning yanada mustahkamlashga qaratilgan takliflari muhim o‘rin tutadi. Bu respublikamizda ilm-fan, maorif tizimi taraqqiyotiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatib kelmoqda.

1991-yilda o‘z faoliyatini boshlagan "O‘zbekiston-Hindiston" do‘stlik jamiyati madaniy aloqalarni kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda¹⁰⁸.

Toshkentda 2006-yilning aprel oyida Javoharlal Neru nomidagi O‘zbekiston-Hindiston axborot texnologiyalari markazi ochildi. Dehli shahrida 2011-yilning yanvar oyida axborot texnologiyalari bo‘yicha O‘zbekiston-Hindiston qo‘shma ishchi guruhining birinchi majlisi bo‘lib o‘tdi¹⁰⁹.

Mamlakatlarimiz madaniyat namoyandalari turli tadbirlar, amaliy va tasviriy san’at asarlari ko‘rgazmalari, kinoanjumanlar va festivallarda doimiy ravishda ishtirok etib kelmoqda. Sport sohasidagi aloqalar ham sezilarli darajada faollashmoqda. Hindiston Milliy kurash assotsiatsiyasi samarali ish olib bormoqda. Jumladan, 2012-yil dekabrdagi Hindistonning Kochi shahrida o‘zbek kurashi

¹⁰⁷ www.uzreport.uz. Alisher Navoiy nomidagi opera va balet katta teatri jamoasi Hindiston gastrolida.

¹⁰⁸ Халқ сўзи. 2000 йил 29 апрель.

¹⁰⁹ www.ziyonet.uz

bo‘yicha kattalar o‘rtasida Osiyo championati bo‘lib o‘tdi.¹¹⁰ Xuddi shu oy “O‘zbekiston-Hindiston” do‘stlik jamiyati, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, La’l Bahodir Shastri nomidagi Hindiston madaniyat markazi va Hindistonning mamlakatimizdagi elchixonasi bilan hamkorlikda “Hindiston: O‘zbekiston yosh rassomlari nigohida” mavzuida ko‘rik-tanlov va ko‘rgazma o‘tkazildi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishim mumkinki, O‘zbekiston-Hindiston davlatlari ilm-fan yo‘nalishidagi hamkorligining istiqboli porloq. Barcha harakatlar zamirida esa, ikki davlat xalqlari o‘rtasidagi do‘stlik aloqalarini yanada rivojlantirish g‘oyasi mujassamlashgan. O‘zbekiston va Hindiston davlati bilan madaniy aloqalar uzoq tarixga ega bo‘lib, o‘tgan davr mobaynida xalqaro iqtisodiy, siyosiy masalalarni hal qilishda, shuningdek, madaniy aloqalarni o‘rnatishda boy tajribaga erishilgan. Bugungi kunda madaniy hayot sohasidagi olib borilayotgan davlat siyosati O‘zbekistonning xalqaro madaniy aloqalar integratsiyalashuvida dunyoning boshqa mamlakatlari orasida o‘z mavqeyini mustahkamlashga olib keldi. Mamlakatning boy madaniy salohiyatga egaligi, o‘zbek milliy madaniyatining umuminsoniy salohiyatga egaligi, o‘zbek milliy madaniyatining uminsoniy qadriyatlarga mos kelishi dunyo hamjamiyati tomonidan tan olinmoqda.

¹¹⁰ www.uza.uz. Hindistonda kurash bayrami

XULOSA

Magistrlik dissertatsiyasini yozish davomida dissertant bayon qiligan fikr-mulohazalarni umumlashtirib quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi:

- Siyosiy mustaqillikka erishgan O‘zbekiston mamlakat va jamiyatni siyosiy, ijtimoiy iqtisodiy va ma’naviy jihatdan yangilanishning strategik vazifalarini aniqlab oldi.
- O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab tashqi siyosiy faoliyatida Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlari, xususan, Xitoy va Hindiston Respublikasiga alohida e’tibor qaratdi. Chunki, yangilanish va taraqqiyot yo‘liga kirib borayotgan O‘zbekiston uchun ushbu mintaqada joylashgan davlatlar bosib o‘tgan rivojlanish yo‘lini o‘rganish katta ahamiyatga molik edi.
- Xitoy va Hindiston o‘zining boy qadimiy tarixi, madaniy-ma’rifiy turmush tarzi, shuningdek zamonaviy taraqqiyot darajasi bilan O‘zbekiston uchun katta qiziqish uyg‘otayotgan mamlakatlardan biri edi. Shuning uchun ikki mamlakat o‘zaro foydali hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga kirishib, davlatlararo munosabatlarning huquqiy asoslari yaratildi.
- O‘zbekiston va Hindiston xalqaro hamkorligi masalalarini tahlil qilish iqtisodiy soha ularning davlatlararo aloqalaridagi ustuvor yo‘nalish ekanligini ko‘rsatadi.
- Davlatlararo munosabatlarni mustahkamlashda madaniyat sohasidagi hamkorlik alohida o‘ringa ega. Shu bois O‘zbekiston Xitoy va Hindiston bilan ko‘p qirrali madaniy aloqalar o‘rnatildi. Ushbu yo‘nalishdagi hamkorlikning turli-tuman shakllari o‘rtasidagi o‘zaro do‘stlik va ishonchning yanada mustahkamlanishiga munosib hissa qo‘shdi.
- O‘zbekiston bilan Xitoy va Hindistonning ilm-fan, ta’lim sohasidagi hamkorligi xalq diplomatiyasi shakllaridan biri sifatida xalqaro munosabatlarning mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining xalqaro maydonda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi uning xorijiy mamlakatlar bilan teng huquqli munosabatlar asosida tashqi siyosat yuritish imkonini berdi. Mazkur siyosatning eng muhim yo‘nalishlaridan biri madaniy aloqalarni yo‘lga qo‘yish va hamkorlik munosabatlarini tartibga solishdir.

Respublikaning xorijiy davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy aloqalari davlat suverenititi va milliy xavfsizligi, iqtisodiy taraqqiyot manfaatlari yo‘lida amalga oshirilsa, madaniy aloqalar esa, xalqlarning ushbu sohalarda erishgan yutuqlarini tanitish orqali ularni o‘zaro bir-biriga yaqinlashtirish, urf-odatlari, an’analari, turmush-tarzidan xabardor qilish asosiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xalqaro madaniy aloqalar yuzoq yillar davomida shakllangan, hozirgi kunda esa jahonda yuz berayotgan barcha sohalardagi integratsion jarayonlar asosida vujudga kelayotgan tabiiy jarayonlardir. Ularning yuzaga kelishi barcha halqlarning o‘z madaniyatini dunyoga yoyish, targ‘ib qilish, sivilizatsiyalar tizimida o‘z mavqeyiga ega bo‘lishga intilishlarni taqozo qilmoqda. Shu sababli madaniy aloqalar nafaqat davlatning o‘zaro intilishlari natijasida kuchayib bormoqda. Bu esa ularning madaniyat namunalaridan xabardor bo‘lishiga va bu boradagi hamkorlik munosabatlarining rivojlanishiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasi xalqaro maydonda madaniy aloqalar olib borar ekan, bu sohada milliy madaniy an’analarni dunyoga tanitish, shu yo‘l bilan zamonaviy sivilizatsiya tizimida o‘z o‘rniga ega bo‘lishga, jahon sivilizatsiyasiga e’tibor berib kelmoqda. O‘zbekiston va Hindiston davlatlari o‘rtasidagi madaniy aloqalari, avvalo, xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashuvi ilm-fan, ta’lim, kino, teatr va amaliy san’at sohasidagi targ‘ib qilish tajribasidan unumli foydalanishdan iborat. O‘zbekiston Respublikasining Hindiston bilan o‘zaro ijtimoiy, madaniy hamkorligi mamlakatlar madaniyat kunlari; davlat, madaniyat, ilm-fan, namoyandalari yubileyalarining nishonlanishi; xalqaro konferensiya, simpoziumlar va festivallar o‘tkazish; fan, madaniyat, san’at, maorif arboblaridan iborat delegatsiyalar almashish; ilmiy va ilmiy-ommabop davriy nashrlar almashish; teatr va kinofil’malar xafthaliklarini o‘tkazish; san’at arboblari bilan uchrashuvlar

o'tkazish, hamkorlikda spektakllar va kinofilmlar yaratish, jamoaviy va shaxsiy konsert dasturlarini tashkil etish fan sohalarida tadqiqotlar olib borish; qo'shma loyihalar ishlab chiqish; grantlar joriy qilish, xalqaro hududiy, milliy va shaxsiy ko'rgazmalar tashkil qilish ikki tomon milliy madaniyatlarining o'zaro boyitishga, umuminsoniy madaniy qadryatlarning taraqqiy etishiga yordam beradi.

O'zbekiston Xitoy va Hindiston bilan xalqaro hamkorligi masalalari tadqiq etish ushbu mamlakatlar o'rtaсидаги aloqalar bosqichma-bosqich rivojlanib borayotganiga qaramay, o'z yechimini topmagan ayrim muammolar ham mavjudligini ko'rsatadi. Ular ma'lum ma'noda, mamlakatlarning mavjud imkoniyatlarini to'liq ishga solishga to'sqinlik qilmoqda. Shu bois dissertasiyada O'zbekiston Xitoy va Hindiston bilan har tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari surildi:

- Mamlakatimizda iqtisodiyotni erkinlashtirish siyosati olib borilayotgan bir paytda ushbu sohaga mas'ul tashkilot va muassasalarning rolini oshirish talab etiladi. Buning uchun ijtimoiy va iqtisodiy yo'nalishda yangi loyihalar ishlab chiqish, qo'shimcha sarmoyalar kirib kelishini kuchaytirish hamda iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida ushbu ikki davlatlar bilan qo'shma korxonalar sonini ko'paytirish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shuningdek, ikki mamlakat sanoat subyektlari o'rtaсида iqtisodiyotning muayyan sohalari bo'yicha o'zaro aloqalarni kengaytirishga yordam beruvchi xalqaro ko'rgazma va yarmarkalarni ko'proq tashkil etish ham ana shu maqsadga xizmat qilgan bo'lardi;
- O'zbekiston Respublikasi Xitoy va Hindiston bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish hamda madaniy aloqalarni samaraliroq boshqarishda, amaldagi huquqiy-me'yoriy hujjalarga davlatlararo manfaatlarni inobatga olgan holda o'zgartirishlar va tuzatishlar kiritib borish;
- Mamlakatlar o'rtaсида madaniy aloqalarni mustahkamlab borishda o'z hissasini qo'shib kelayotgan davlat, nodavlat tashkilotlar, alohida shaxslar faoliyati bilan keng jamoatchilikni tanishtirib borish va targ'ib qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

- O‘zbekiston Respublikasi, Xitoy va Hindiston davlatlarining madaniy merosi bilan yaqindan tanishtirib borish maqsadida tomonlarining oliy va o‘rta maxsus ma’lum muassasalarida muntazam ravishda madaniyat kunlari tashkil etish;
- Madaniyat va sport sohalaridagi hamkorlikni yanada jadallashtirish uchun “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi Xitoy va Hindiston sayyohlik firmalarining sayyohlarini jalg etishga qaratilgan hududlardagi tarixiy va diqqatga sazovor joylarga oid yangi yo‘nalishlarni ishlab chiqishlari, O‘zbekiston, Xitoy va Hindiston olimpiya qo‘mitalari esa turli turnir va musobaqalarni o‘tkazish bo‘yicha maxsus dasturlar yaratishlari maqsadga muvofiq bo‘lardi.
- O‘zbekiston bilan Xitoy va Hindiston o‘rtasidagi milliy hamkorlikni jadallashtirish maqsadida mamalakat Fanlar akademiyalarining tabiiy va ijtimoiy yo‘nalishlardagi ilmiy-tadqiqot institutlari yangi loyihamar ishlab chiqarishlari, olimlar o‘rtasida tajriba almashinuvi, stajirovka va ilmiy safarlar tashkil qilishni hamda dolzarb masalalar bo‘yicha xalqaro ilmiy konferensiya va seminarlar o‘tkazilishi kerak, deb o‘ylayman.
- Ta’lim yo‘nalishidagi hamkorlikni kelgusida yanada rivojlantirish uchun O‘zbekiston, Xitoy va Hindistonning tegishli vazirliklari mamlakat oliy o‘quv yurtlari o‘rtasidagi aloqalarni yangi bosqichga olib chiqishi jarayoniga yetakchilik qilishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu borada respublikamizning yetakchi oliy o‘quv yurtlari negizida qo‘shma o‘quv kurslari ochish hamda yosh, iqtidorli professor-o‘quvchilarga Hindistondagi obro‘li o‘quv markazlarida malaka oshirishlar uchun maxsus grantlar ajratilishiga alohida e’tibor qaratish lozim.
- O‘zbekiston, Xitoy va Hindiston mamlakatlarning kelgusida o‘zaro manfaatli hamkorligini bundan keyin ham tadqiq qilish va davom ettirish zarur. Bunda davlatlarning siyosiy munosabatlari, iqtisodiy va madaniy sohalardagi hamkorlikda erishgan yutuqlari, ularning mintaqasi va jahon

miqyosidagi jarayonlarga munosabatlari kabi masalalarga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

I. Rahbariy adabiyotlar:

- 1.1. Karimov I. “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”. –Toshkent. Ma’naviyat, 2008.
- 1.2. Karimov I. “O‘zbekiston: milliy istiqilol, iqtisod, siyosat, mafkura”. – Toshkent. O‘zbekiston, 1996.
- 1.3. Karimov I. “Olloq qalbimizda, yuragimizda”. –Toshkent. O‘zbekiston, 2001.
- 1.4. Karimov I. “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik sharatlari va taraqqiyot kafolatlari”. –Toshkent. O‘zbekiston, 1997.
- 1.5. Каримов И. Она юртимиз баҳту иқболи йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. – Тошкент. Ўзбекстон, 2015.
- 1.6. Каримов И. Озодлик ҳавосидан тўйиб нафас олган ҳалқ ўз йўлидан ҳеч қачон қайтмайди. 2016 йил 30 июнда Сурхондарё меҳнаткашлари билан учрашувидаги нутқи.

II. Asosiy adabiyotlar:

- 2.1. Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсий фаолият тўғрисидаги қонуни. www.lex.uz
- 2.2. Ўзбекистон янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент. 2000.
- 2.3. Ўзбекистон Жаҳон Ҳамжамияти сафида. Муаллифлар жамоаси. – Тошкент. F.Гулом номидаги Адабиёт ва саноат нашриёти, 2000.
- 2.4. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Тошкент. Ўзбекистон, 2014.
- 2.5. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 2-жилд. –Тошкент. ЎМЭ, 2000.
- 2.6. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси.4-жилд. –Тошкент. ЎМЭ, 2000.
- 2.7. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси.9-жилд. –Тошкент. “ЎМЭ”, 2005.
- 2.8. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси.10-жилд. –Тошкент. ЎМЭ, 2005.
- 2.9. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Тошкент. Шарқ, 2000.
- 2.10. Давлат қурилиши ва бошқаруви. Муаллифлар жамоаси. - Т.: Академия, 2007.
- 2.11. Алимов А. Внешнеэкономическая деятельность Республики Узбекистан взгляд в будущее. – Ташкент. 1992.
- 2.12.Аъзамова С., Обидов Б. Ҳозирги Ҳинди斯顿. – Тошкент. Фан, 1991.
- 2.13.Давлатлар ва ҳалқаро ташкилотлар. – Тошкент. Академия, 2005.
- 2.14.Жўраев Н. Ўзбекистон тарихи: (Миллий истиқлол даври) 3-китоб. – Т.: Шарқ, 2011.
- 2.15.Фофуров А. Ҳинди斯顿. Ижтимоий-иктисодий, маданий, тарихий ва географик жиҳатлари. – Тошкент. Молия, 2010.
- 2.16.Фаффоров Я., Холлиев А. Ўзбекистон ва жаҳон ҳамжамияти. –Тошкент. 2003.

- 2.17.Хайитов Ш.А. Ўзбек мұхажирлиги тарихи (1917-1991 уйлар). – Тошкент. 2008.
- 2.18.Қирғизбоев А.К. Ўзбекистон ва Жаҳон. – Тошкент. 1997.
- 2.19.Қирғизбоев А.К. Ўзбекистон Республикасининг Осиё мамлакатлари билан халқаро ҳамкорлиги. – Тошкент. Фан, 2004.
- 2.20.Нуриддинов Э.З. Ўзбекистон Республикасининг ташқи иқтисодий фаолияти асослари ва устувор йўналишлари // Ўзбекистон тарихи. Тошкент. 2000. № 4.
- 2.21.Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда // Республика илмий анжумани материаллар тўплами. Фарғона. 2009 й.
- 2.22.Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда // Республика илмий анжумани материаллар тўплами. Фарғона. 2017 й.
- 2.23.Касымов А., Петова Л. Внешняя политика Узбекистана в света концепции ненасилия. –Ташкент. 1992.
- 2.24.Касимов А., Васькин И. Основные направления внешней политики Республики Узбекистан. – Ташкент. 1994.
- 2.25.Алимов А. Ўзбекистонда ташқи савдо // Иқтисод ва ҳисобот. –Ташкент. 1997.
- 2.26.Рахимов М.А. Международное сотрудничество Узбекистана в контексте обеспечения стабильности и устойчивого развития в Центральной Азии. – Ташкент. 2011.
- 2.27.Салихов С.С. Выйти из внешней рынок . // Экономика и статистика. – Ташкент. 1995.
- 2.28.Турсунмухаммедов И.Г. Совместные предприятия и проблемы их развития // Общественные науки в Узбекистане. –Ташкент. 1993.
- 2.29. Усмонов С. Практическое осуществление собственной модели перехода к рыночным отношениям в Узбекистане // Экономика и статистика. – Ташкент. 1997.
- 2.30.Lafasov M. Jahon tarixi. – Toshkent. Turon-Iqbol, 2011.
- 2.31.Usmonov Q. O'zbekiston tarixi. – Toshkent. Ilm-Ziyo, 2010.

III. Avtoreferatlar:

- 3.1. Усаров Ф. У. Ўзбекистон Республикаси ва Жанубий-Шарқий Осиё мамлакатлари ўртасида иқтисодий ва маданий соҳалардаги ҳамкорлик. Автореферат ном дисс. –Ташкент. 2010.
- 3.2. Асадова Р. Б. Сотрудничество между Узбекистаном и Индией в области экономики и культуры: исторические основы и современное состояние (1991-2001 гг) : Автореф. дис.. канд. ист.наук. – Ташкент. 2007.
- 3.3. Зиямов Н. Роль Узбекистана в развитии межгосударственного экономического и культурного сотрудничества стран Центральной Азии (1991-2001 гг): Автореф. дис. канд. ист.наук. – Ташкент. 2002.

Davriy matbuot materiallari:

- 4.1. Xalq so‘zi gazetasi. 1994 yil 22 iyun soni.
- 4.2. Xalq so‘zi gazetasi. 2000 yil 29 aprel soni.
- 4.3. Xalq so‘zi gazetasi. 2001 yil 26 yanvar soni.
- 4.4. Xalq so‘zi gazetasi. 2001 yil 3 fevral soni.
- 4.5. Xalq so‘zi gazetasi. 2004 yil 24 yanvar soni.
- 4.6. Xalq so‘zi gazetasi. 2005 yil 8 aprel soni.
- 4.7. Xalq so‘zi gazetasi. 2010 yil 20 may soni.
- 4.8. Guliston jurnali. 1994 yil №1 B 58.
- 4.9. O‘zbekistonda ijtimoiy fan. 1997 yil №12 soni.
- 4.10. O‘zbekistonda ijtimoiy fan. 2005 yil №1-2 B 60-65 bet.
- 4.11. Fidokor gazetasi. 2005 yil 16 iyun soni.
- 4.12. Jamiyat va boshqaruv. 2005 yil №2 B 60-65.

V. Internet ma’lumotlari:

- 5.1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali.
- 5.2. www.un.org – Birlashgan Millatlar Tashkiloti veb-sahifasi
- 5.3. www.tashkent.unesco.org – BMTning Ta’lim, fan va madaniyat bo'yicha tashkiloti veb-sahifasi
- 5.4. www.mfa.uz – O‘zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligi veb-sahifasi
- 5.5. www.ambafrance-uz.org – O‘zbekiston-Fransiya elchixonasi veb-sahifasi
- 5.6. www.gazeta.uz – Axborot sayti
- 5.7. old.president.uz (O‘z.Res Prezidentining matbuot xizmati)
- 5.8. [www.ziyonet.uz\(Axborot ta'lim tarmog'i\)](http://www.ziyonet.uz(Axborot)
- 5.9. www.mfa.uz (O‘z.Res Tashqi ishlar vazirligining rasmiy sayti)
- 5.10. www.uza.uz (O‘zA agentligi sayti)
- 5.11. www.uzreport.uz (UzReport axborot agentligi sayti)
- 5.12. www.lex.uz